

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 109 (1708), 2026-yil 30-may, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz_uz_news



yuz.uz_news



O'ZBEKISTON PREZIDENTI OLIY YEVIROOSIYO IQTISODIY KENGASHI SAMMITIDA QATOR TASHABBUSLARNI ILGARI SURDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-may kuni Ostona shahrida Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig'ilishida kuzatuvchi davlat rahbari maqomida ishtirok etdi.



Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev raisligida o'tgan uchrashuvda Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko,

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Armaniston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari Mger Grigoryan,

kuzatuvchi maqomidagi Kuba Respublikasi vitse-prezidenti Salvador Mesa va Eron Islom Respublikasi sanoat, konlar va savdo vaziri Muhammad Atabak,



Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi Hay'ati raisi Baqitjan Sag'intayev hamda mehmon sifatida MDH Bosh kotibi Sergey Lebedev ham qatnashdi.

Kun tartibidan ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini qo'llab-quvvatlash, sheriklikning ustuvor

yo'nalishlarida qo'shma dasturlarni amalga oshirish masalalari o'rin oldi.

▶ Davomi 2-beta

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY YEVIROOSIYO IQTISODIY KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich! Hurmatli davlatlar va delegatsiyalar rahbarlari!

Avvalo, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti, hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga an'anaviy samimiy qabul va mehmondoshlik Ostona shahrida uchrashuvimizni yuksak darajada tashkil etgani uchun chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Jahon iqtisodiyotida keng ko'lamli texnologik transformatsiya jarayoni kechayotgan bir davrda Qozog'istonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqidagi samarali raisligini alohida qayd etmoqchiman.

Sammitimiz arafasida sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish masalalariga bag'ishlangan beshinchi Yevroosiyo iqtisodiy forumi ochilgan ramziy ma'noga egadir. Bugungi kunda aynan raqamli texnologiyalar, zamonaviy logistik yechimlar va sanoat kooperatsiyasi ko'p jihatdan davlatlarning raqobatdoshligi, bozorlar barqarorligi va milliy iqtisodiyotlarning tashqi xatarlarga munosib javob qaytara olish qobiliyatini belgilamoqda.

Hurmatli hamkasblar! O'zbekiston uchun YOII mamlakatlari bilan amaliy hamkorlikni kengaytirish tashqi iqtisodiy

siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda bizning YOII davlatlari bilan o'zaro hamkorligimiz kompleks iqtisodiy sheriklik tusini oldi. O'zaro savdo hajmi o'smoqda, sanoat kooperatsiyasi chuqurlashmoqda, logistik aloqalar mustahkamlanmoqda, raqamli iqtisodiyot, energetika va xizmatlar sohasida yangi yo'nalishlar shakllanmoqda.

O'zbekiston Ittifoqning barcha asosiy tadbirlarida faol ishtirok etmoqda. Joriy yilda Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan uch yillik Hamkorlik rejasini amalga oshirishni yakuniga yetkazmoqdamiz. O'zbekiston hukumati Qo'shma ishchi guruhining navbatdagi majlisini joriy yilning kuz faslida Toshkent shahrida o'tkazishga tayyorgarlik ko'moqda. Uning doirasida keyingi davr uchun mo'ljallangan yangi Hamkorlik rejasini qabul qilishni taklif etamiz.

Yaqinda texnik jihatdan tartibga solish tizimlarini yaqinlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Savdo va yuk tashuvlarini raqamlashtirish, elektron tijoratni rivojlantirish va iqlim borasida kun tartibidagi masalalar bo'yicha tarmoq dasturlarida ishtirokimizni davom ettirmoqdamiz.

Toshkent shahrida Yevroosiyo taraqqiyot bankining mamlakat ofisini ochdik, birgalikda muayyan loyihalar portfeli shakllantirildi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari! YOII bilan hamkorligimizni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini qisqacha ko'rsatib o'tmoqchiman.

Birinchi. O'zbekiston va YOII davlatlari o'rtasida to'siqsiz savdoning yagona raqamli makonini shakllantirishga kirishishni muhim deb hisoblaymiz.

Bu yerda so'z elektron tijoratni rivojlantirish va uni tartibga solish borasidagi yondashuvlarni muvofiqlashtirish, bojxona, fitosanitariya va veterinariya nazorati sohalarida raqamli ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish, tovarlarning kelib chiqishini sertifikatlash, shuningdek, elektron hujjatlarni bosqichma-bosqich o'zaro tan olish haqida bormoqda.

Shuningdek, raqamli tranzitni joriy etish, kuzatuv tizimlariga ulanish hamda o'tkazish punktlarini modernizatsiya qilish orqali "aqlii" transport-bojxona yo'laklarini yaratish ishlariga kirishish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi. Sanoat kooperatsiyasi rivojiga yangi turki berish muhimdir.

Biz biznesning ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, texnologik sheriklik va yangi ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirishga qiziqishi ortib borayotganini ko'rmuqdamiz. Buni joriy yilning aprel oyida Toshkent shahrida muvaffaqiyatli o'tkazilgan oltinchi "INNOPROM. Markaziy Osiyo" ko'rgazmasi ham tasdiqlaydi.

Mamlakatlarimiz o'rtasida sanoat kooperatsiyasi dasturini tayyorlashda mazkur ko'rgazma salohiyatidan foydalanishni taklif etamiz. Sanoat avtomatizatsiyasi va robototexnika, energetika uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarish, suv tejovchi texnologiyalar, zamonaviy qurilish materiallari va boshqa sohalarini istiqbolli yo'nalishlar qatorida qayd etish mumkin.

O'zbekistonda kooperatsiya bo'yicha "yagona darcha" formatida Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan hamkorlikda sheriklarni tanlaydigan, erkin sanoat zonalarimiz negizida tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydigan, moliyalashtirishni jalb etishga ko'maklashadigan qo'shma loyiha ofisini tashkil etishga tayyormiz.

YOII davlatlaridan keladigan yuqori texnologiyali rezidentlar uchun qo'shimcha rag'batlantiruvchi sharoitlarni ishlab chiqishga tayyormiz.

Uchinchi. Energiya samaradorligini oshirish, toza texnologiyalarni joriy etish va mahsulotlarning uglerod sig'imini kamaytirishga qaratilgan Sanoatni "yashil" transformatsiya qilish qo'shma dasturini qabul qilishni taklif etamiz.

Bu endilikda mamlakatlarimiz uchun nafaqat ekologik kun tartibidagi masala, balki sanoatning uzoq muddatli raqobatdoshligini ta'minlaydigan muhim omilga aylangan.

Qo'shma "yashil" loyihalar portfeli shakllantirish, ularni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini rivojlantirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash orqali sanoatning ustuvor tarmoqlarini modernizatsiya qilish amaliy chora-tadbirlar sifatida dasturdan o'rin olishi mumkin.

To'rtinchi. Bandlik bo'yicha milliy elektron xizmatlarni o'zaro bog'lash orqali tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishni dolzarb deb hisoblaymiz.

Bu yerda so'z fuqarolarning ishonchli bo'sh ish o'rinlari, ishga joylashish shartlari hamda migratsiya qonunchiligi normalari haqidagi ma'lumotlardan to'g'ridan-

to'g'ri foydalanishini ta'minlaydigan qulay va yaxlit raqamli muhitni shakllantirish haqida bormoqda. Bu bir paytning o'zida mamlakatlarimiz mehnat bozorlari ehtiyojlarini hisobga olish, xodimlarning malakasini oshirish, fuqarolar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish va norasmiy bandlik xavflarini kamaytirish imkonini beradi.

Beshinchi. Bugungi kunda turizm madaniy-gumanitar sohadagi hamkorligimizning eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Biz "Markaziy Osiyo turistik halqasi" tashabbusini ilgari surdik. YOII mamlakatlarini unda ishtirok etish va mazkur turistik yo'nalishni ommabop raqamli platformalarda birgalikda targ'ib qilishga taklif etamiz.

Hurmatli hamkasblar! So'zimizning yakunida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishga intilishimiz qat'iyiligi yana bir bor tasdiqlamoqchiman.

O'zbekistonning yuqorida qayd etilgan qo'shma tashabbus va loyihalarda ishtirok etishi o'zaro manfaatli sheriklikni mustahkamlash hamda davlatlarimizning barqaror rivojlanishiga ko'mak berishiga ishonaman.

1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

BOLALAR HUQUQLARINING KAFOLATI — YORQIN KELAJAK POYDEVORI

Azaldan bolajon xalqimiz. Farzandlarimizning yorqin ertasi uchun bor imkoniyatimizni ishga solamiz. Bu qadriyat oiladan boshlanib, butun mamlakat siyosatida ustuvor vazifa sifatida aks etadi. 1992-yilning 9-dekabrda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shilgan mamlakatimiz hujjat doirasidagi majburiyatlarga to'la amal qilib kelayotgani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Ayniqsa, keyingi yillarda bola huquqlari va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar jadal tus oldi. Xususan, konstitutsiyaviy yangilanishlar bilan bolaning huquq va manfaatlarini ta'minlash kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan yangi, ilg'or normalar paydo bo'ldi. Bola huquqlarini himoya qilishga alohida bob bag'ishlandi. Bir so'z bilan aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bolalarning huquq va manfaatlarini to'laqonli ta'minlashni kuchaytirdi. Bu borada 50 ga yaqin qonun va qonunosti hujjat ham qabul qilindi.

▶ Davomi 3-beta



MUBORAK AYYOMDAGI MEHR-SAXOVAT

G'AMXO'RLIK VA INSONPARVARLIK IFODASI

So'nggi yillarda milliy o'zligimizning ajralmas qismi bo'lgan Ramazon va Qurban hayitlarini o'zgacha shukuh bilan nishonlash, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash, keksalar va nogironligi bor shaxslarga mehr-e'tibor ko'rsatish go'zal an'anaga aylandi. Vijdon erkinligini ta'minlash, islom ma'rifati va ajdodlar merosini chuqur o'rganish borasidagi islohotlar bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Ayniqsa, insonparvarlik, saxovat, shukronalik va bag'rikenglik kabi olijanob fazilatlarini o'zida mujassam etgan muborak Qurban hayiti arafasida "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" tamoyili amalda nechog'liq yuqori ekani yana bir bor tasdiq'ini topdi.

Prezidentimizning 2026-yil 22-maydagi "Muborak Qurban hayiti munosabati bilan aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mehr-saxovat tadbirlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi qarorida yurtodoshlarimizni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha misli ko'rilmagan mehr-saxovat choralarini belgilab berildi.

Dastur asosida og'ir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan bolalarda jarrohlik amaliyotini o'tkazish, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga har tomonlama ko'mak ko'rsatish tadbirlari boshlab yuborildi. Og'ir xastalikka qarshi kurashayotgan minglab bolalarda zarur jarrohlik amaliyoti o'tkazilib, ularda hayotga qayta umid paydo bo'ldi.

Ayniqsa, taqdir taqozosi bilan ota-ona mehridan ayrilgan yoki og'ir sinovlarni boshdan kechirayotgan bolajonlar qalbiga quvonch ulashish maqsadida ularning omonat hisobvarag'iga 200 AQSH dollari miqdorida pul mukofoti o'tkazib berilmoqda. Bu nafaqat moddiy ko'mak, balki ushbu bolalarga "Siz yolg'iz emassiz, davlat va xalq siz bilan!" degan yuksak ma'naviy daldadir.

Minglab oilalarga kirib borayotgan ushbu quvonchli xabar yangi O'zbekistonda har bir fuqaroning taqdiri davlat e'tiborida ekanining yorqin ifodasi bo'lmoqda.

Prezidentimizning qarorida xalqimizga xos mehr-oqibat, insonparvarlik, shukronalik, saxovat va bag'rikenglik kabi ezgu fazilatlarini o'zida mujassam etgan muborak Qurban hayitini munosib kutib olish maqsadida xalqimizning maroqli dam olishi va ziyorat qilishi uchun qo'shimcha dam olish kunlari belgilandi.

▶ Davomi 2-beta

2026-yil 30-may, 109-son



www.yuz.uz

yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

O'ZBEKISTON PREZIDENTI OLIY YEVROOSIYO IQTISODIY KENGASHI SAMMITIDA QATOR TASHABBUSLARNI ILGARI SURDI

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston Prezidenti nutqining avvalida YOII mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni izchil ravishda kengaytirish va chuqurlashtirish mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolayotganini ta'kidlagi.

YOII davlatlari bilan o'zaro hamkorlik kompleks iqtisodiy sheriklik tusini olgani qayd etildi.

O'zaro savdo hajmi barqaror o'sib bormoqda, sanoat kooperatsiyasi kengayib, logistika aloqalari mustahkamlanmoqda, raqamli iqtisodiyot, energetika va xizmatlar sohasida hamkorlikning yangi yo'nalishlari shakllanmoqda.

Joriy yilda Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan uch yillik Hamkorlik rejasini amalga oshirish yakuniga yetayotgani bildirildi. Shu munosabat bilan joriy yilning kuz faslida Toshkent shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan Qo'shma ishchi guruhning navbatdagi yig'ilishi doirasida yangi rejaning qabul qilish taklifi etildi.

Yaqinda texnik jihatdan tartibga solish tizimlarini yaqinlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

O'zbekiston itifoqning elektron tijoratni rivojlantirish, savdo va yuk tashishni raqamlashtirish, iqlim masalalari va boshqa yo'nalishlardagi tashabbuslarida faol ishtirok etmoqda.

Toshkent shahrida Yevroosiyo taraqqiyot bankining mamlakat ofisi faoliyati yo'lga qo'yilib, bank bilan hamkorlikda sanoat kooperatsiyasi bo'yicha yangi loyihalar portfelini shakllantirilgan.

Davlatimiz rahbari itifoq bilan sheriklikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari yuzasidan o'z nuqtayi nazarini bayon qildi.

O'zbekiston va birlashma davlatlari o'rtasida to'siqsiz savdoning yagona raqamli makonini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bunda elektron tijoratni tartibga solish borasidagi yondashuvlarni muvofiqlashtirish, bojxona, fitosanitariya va veterinariya nazorati sohasida raqamli ma'lumot almashuvini yo'lga qo'yish, tovarlarning kelib chiqishini sertifikatlash hamda elektron hujjatlarini bosqichma-bosqich o'zaro tan olish muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, raqamli tranzitni joriy etish, kuzatuv tizimlariga ulanish hamda o'tkazish punktlarini modernizatsiya qilish orqali "aqlli" transport-bojxona yo'laklarini yaratish ishlariga kirishish taklifi bildirildi.

Ishbilarmon doiralarning ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, texnologik sheriklik va yangi ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirishga qiziqishi ortib borayotganini joriy yil aprel oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan "INNOPROM. Markaziy Osiyo" VI xalqaro sanoat ko'rgazmasi tasdiqladi.

O'zbekiston va YOII mamlakatlari o'rtasida sanoat kooperatsiyasi dasturini tayyorlashda mazkur ko'rgazma salohiyatidan foydalanish taklif qilindi. Sanoat avtomatizatsiyasi va robototexnika, energetika uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarish, suv tejovchi texnologiyalar, zamonaviy qurilish materiallari va boshqa sohalar istiqbolli yo'nalishlar qatorida qayd etildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston kooperatsiya bo'yicha "yagona darcha" formatida Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan hamkorlikda sheriklarni tanlaydigan, erkin sanoat zonalari negizida tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydigan, moliyalashtirishni jalb etishga ko'maklashadigan qo'shma loyiha ofisini ochishga tayyorligini bildirdi.

YOII davlatlaridan keladigan yuqori texnologiyali rezidentlar uchun qo'shimcha rag'batlantiruvchi sharoitlarni ishlab chiqishga tayyormiz, — dedi O'zbekiston Prezidenti.

Energiya samaradorligini oshirish, toza texnologiyalarni joriy etish va mahsulotlarning uguldor sig'imini kamaytirishga qaratilgan Sanoatni "yashil" transformatsiya qilish qo'shma dasturini qabul qilish bo'yicha taklif ham ilgari surildi.

Qo'shma "yashil" loyihalar portfelini shakllantirish, moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini rivojlantirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash orqali sanoatning ustuvor tarmoqlarini modernizatsiya qilish amaliy chora-tadbirlar sifatida dasturdan o'rinishi mumkin.

Bu endilikda mamlakatimiz uchun nafaqat ekologik kun tartibidagi masala, balki sanoatning uzoq muddatli raqobatdoshligini ta'minlaydigan muhim omilga aylanmoqda, — dedi O'zbekiston yetakchisi.

Tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur sohada hamkorlikni milliy elektron bandlik xizmatlarini integratsiya qilish orqali sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Bu fuqarolarning ishonchli bo'sh ish o'rinlari, isha joylashish shartlari hamda migratsiya qonunchiligi normalari haqidagi ma'lumotlardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishini ta'minlaydigan qulay va yaxlit raqamli muhiti shakllantirishni nazarda tutadi.

— Bu bir paytning o'zida mamlakatlarimiz mehnat bozorlari ehtiyojlarini hisobga olish, xodimlarning malakasini oshirish, fuqarolar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish va norasmiy bandlik xavflarini kamaytirish imkonini beradi, — dedi Prezidentimiz.

Turizm sohasida O'zbekiston tomonidan "Markaziy Osiyo turistik halqasi" tashabbusi ilgari surilgani qayd etildi.

Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari YOII davlatlarini mazkur turizm yo'nalishini ommabop raqamli platformalarda birgalikda ilgari surishga qo'shilishga taklif qildi.

Yakunda Prezidentimiz O'zbekistonning YOII ko'p tomonlama dasturlari va loyihalaridagi ishtiroki o'zaro manfaatli sheriklikni yanada mustahkamlash hamda mamlakatlarimizning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlandi.

Ostonaga amaliy tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev huzurida Investitsiya va savdo sohasidagi erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha amaliy harakatlar rejasini imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

"Yo'l xaritasi"da avtomobilsozlik, energetika, kimyo sanoati, metallurgiya, farmatsevtika, logistika, qurilish materiallari, uy-joy qurilishi, qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlarda qo'shma loyihalarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

Hujjat joriy yil aprel-may oylarida ikki davlat rahbarlarining Buxoro va Turkiston shaharlarida bo'lib o'tgan uchrashuvlarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Qozog'iston Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

O'ZA

MUBORAK AYYOMDAGI MEHR-SAXOVAT

G'AMXO'RLIK VA INSONPARVARLIK IFODASI

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, qarorga muvofiq, yurtimizdagi muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish uchun ko'ngilli xayriya hasharlari o'tkazilmoqda. Bunday xayriyalarida Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi jamoasi ham faol ishtirok etdi.

Ayni kunlarda yurtimizdan 15 mingdan ziyod ziyoratchi muqaddas haj amallarini ado etish uchun Makka va Madina shaharlarida bo'lib turibdi. Ahamiyatli jihati, bu yil davlatimiz rahbari tashabbus bilan jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan turli soha vakillari, ulamolar, nuroniy otaxon va onaxonlar, ehtiyojmand hamda kam ta'minlangan oilalardan iborat 100 nafar yurtdoshimizga "Prezident hojlari" yo'llanmasi taqdim etilib, muborak haj safariga yuborildi.

Prezidentimizning 21-may kuni muftiy, shayx Nuriddin Xoliqnazar bilan telefon orqali muloqoti mamlakatimizda diniy va diniy qadriyatlariga yuksak e'tibor qaratilayotganini yana bir amaliy ifodasi bo'ldi.

Davlatimiz rahbari Makka shahrida bo'lib turgan barcha yurtdoshlarimizni kirib kelayotgan Qurbon hayiti bilan samimiy muborakbod etib, ularning yurt tinchligi, xalqimiz farovonligi, millatimiz birlamligi va yoshlarimiz baxt-saodati yo'lida qilayotgan dualari jabot bo'lishini tiladi. Prezidentimiz bunday e'tibori va g'amxo'rligi hojlirimizning quvonchiga sabab bo'lib, ularning qalbini g'urur va iftixorga to'ldirdi.

Mana shunday fazilatlari kunlarda O'zbekiston tomonidan qarqosh Qozog'iston xalqiga tuhfa sifatida Turkiston shahrida bunyod etilgan muhtasham masjid ikki mamlakat o'rtasidagi azaliy do'st-birodarlik,

qardoshlik va yaxshi qo'shinchilik munosabatlaring yorqin ifodasi bo'ldi.

Buyuk ajdodimiz Amir Temur Turkiston shahrida abadiy qo'nim topgan olim, tasavvuf ta'limotining yorqin namoyandasi, yassaviylik tariqati asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy xotirasini ulug'lash va ikki xalqni birlashtirish maqsadida uning qabri ustida ulkan yodgorlik majmuasini qurdirgan.

Bugun O'zbekiston tomonidan qurilgan masjid mushtarak tarixiy idizlar, e'tiqod va an'analar bilan bog'langan ikki qardosh xalqni yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu muhtasham majmua Amir Temur davrida asos solingan ma'naviy-ruhij ko'priknig davomi sifatida ikki davlat o'rtasidagi ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy aloqalarning yanada rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, Prezidentimizning O'zbekiston xalqiga yo'llagan Qurbon hayiti tabrigi barchamiz uchun alohida e'tibor va g'amxo'rlik ifodasi bo'ldi. Tabrikdir muborak oyda keksalar, bemorlar holidan xabar olish, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar, kam ta'minlangan oilalarga amaliy ko'mak berish ishleri ezgu qadriyat ekanini alohida qayd etilgan. Shuningdek, keyingi yillarda O'zbekistonning qadimiy tarixi va boy madaniy qadriyatlarini, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning ilmiy-ma'rifiy merosini, islom dinining asl mohiyatini o'rganish va targ'ib etish borasidagi ishlar yangi bosqichga ko'tarilgani, bu boradagi yuksalishni xalqimiz va yurtimiz mehmonlari uchun yaqinda o'z eshiklarini ochgan azim poytaxtimizdagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi, Marg'ilon shahridagi Burhoniddin Marg'inoniy ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasi kabi yangi O'zbekiston

inshootlari misolida yaqqol ko'rish mumkinligi ta'kidlangan.

Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari o'rtasida hamkorlik o'rnatilgani ma'naviy hayotimizdagi katta voqea bo'ldi. "Bir dargoh — bir maslahat — bir natija — bir kelajak" shiori ostida yo'lga qo'yilgan bu hamkorlik qisqa muddatda samara bera boshladi.

Uning doirasida "Uchinchi Renaissance chorrahasi" hamda "Yoshlar — buyuk sivilizatsiyalar izdoshlari" kabi ilmiy-ma'rifiy loyihalar hayotga tabtiq etilmoqda. Jumladan, joriy yil aprel-may oylarida Islom sivilizatsiyasi markazida ikkita xalqaro konferensiya, ellikdan ziyod seminar, davra subhuti, mahorat darsi va kitob taqdimotlari o'tkazildi.

Ularida yoshlar, oliy hamda diniy ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilar, imom-xatiblar, otinoyilar, shuningdek, ko'zi ojizlar jamiyati a'zolari va boshqa soha vakillaridan iborat 6000 dan ortiq yurtdoshimiz qamrab olindi.

Umuman aytganda, Qurbon hayiti asrlar davomida xalqimizning ma'naviy hayotida muhim o'rin egallab kelayotgan ulug' va muqaddas bayramdir. Mamlakatimizda diniy-ma'rifiy sohada qilishotlar hamda bunyod etilayotgan ilmiy-ma'rifiy maskanlar, yurtimizda milliy va diniy qadriyatlar shunchaki marosim emas, balki "Inson qadri uchun" g'oyasining amaliy ifodasidir.

**Komiljon
SHERMUHAMMEDOV,
Imom Moturidiy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi
direktori, tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent**

FUQARO BILAN DAVLAT O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR FALSAFASI



**Mansur MUSAYEV,
siyosiy fanlar doktori,
professor**

Bugun inson manfaatlariga yo'naltirilgan raqamlashtirish va aniq natijadorlikka asoslangan yangi boshqaruv modelini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Joriy yil noyabr oyida Prezidentimiz tomonidan boshlab berilgan "Byurokratiyani bartaraf etish — 2030" dasturi keng ko'lami islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Dastur mazmuni mutlaqo yangi yondashuvni namoyon etayapti: davlat endi shunchaki ma'lumotnomalar sonini kamaytirish yoki ayrim tartib-taomillarni tezlantirishni emas, balki fuqaro bilan davlat o'rtasidagi munosabat falsafasini tubdan o'zgartirishni maqsad qilgan.

**Muhimi, islohotlar
markazida insonparvarlik
va fuqarolarga xizmat
ko'rsatish tamoyili
turibdi. Ya'ni davlat
tizimi fuqaroga
qo'shimcha qiyinchilik
tug'dirmay, uning
ehtiyollarini oldindan
anglab, muammolarni
imkon qadar tez, qulay va
sezilmas tarzda hal qilishi
kerak.**

Davlat organlari samaradorligini baholashga qaratilgan "Sifatli davlat boshqaruvi" dasturi alohida e'tiborga loyiq. Ushbu loyiha BAA bilan hamkorlikda amalga oshirilmog'da. Davlat idoralari faoliyati mustaqil baholash tizimiga o'tayotgani o'z-o'zidan islohotlarning

TUBDAN O'ZGARMOQDA

Nuqtayi nazar

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimini izchil modernizatsiyalash jarayoni tobora chuqur institutsional islohotlar tusini olyapti. Bunda asosiy ustuvor yo'nalish sifatida rasmiy-ma'muriy boshqaruv emas, balki davlat xizmatlari sifati, qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligi hamda fuqarolarning davlat institutlariga ishonchini mustahkamlash masalasi ilgari surilyapti.

institutsional jihatdan yetuklashayotganini ko'rsatadi. Dastur asosida rasmiy hisobotlar emas, balki strategik boshqaruv sifati, davlat xizmatlari samaradorligi hamda inson kapitalini rivojlantirish darajasi tahlil qilinadi. Boshqachasi aytganda, davlat organlari faoliyati endi ko'p hujjat ishlab chiqqani bilan emas, balki jamiyat uchun qay darajada real qiymat yaratayotgani va fuqarolar og'irini qanchalik yengil qilayotgani bilan baholalanadi.

Islohotlarning yana bir muhim yo'nalishi — qog'ozsiz hukumat tizimini yaratish. Millionlab qog'oz hujjatlaridan voz kechish tashabbusi texnologik o'zgarishdan tashqari korruptsiyaga qarshi kuchli mexanizm ham hisoblanadi. Chunki fuqaro bilan amaldor o'rtasidagi bevosita va qo'lda amalga oshiriladigan jarayonlar kamaygani sari suiiste'mol, ma'muriy bosim va noaniq qarorlar xavfi ham kamayadi.

Umuman, bu yil amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami nihoyatda keng. Agar 2017-yilda aholiga 444 ta davlat xizmati ko'rsatilgan bo'lsa, 2030-yilga borib 1 ming 500 taga yetishi kutilyapti. Shu bilan birga, elektron xizmatlar ko'rsatish ulushi 95 foizga yetkaziladi.

Bugun ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng muvaffaqiyatli modernizatsiya modellardan birini shakllantiryapti. Davlatimiz rahbari bu boradagi maqsadni aniq belgilab bergan: fuqarolar hayot sifati va jamiyatning davlatga ishonchi asosiy samaradorlik mezoniga aylangan zamonaviy davlat boshqaruvi tizimini yaratish.

Poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida bo'lib o'tgan "Sifatli davlat boshqaruvi" dasturi bo'yicha forum va taqdirash marosimi bu jarayon izchil va qat'i davom etayotganini yana bir iboratidir.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda davlat boshqaruvi sohasida Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, o'tgan yil noyabrda byurokratiyani bartaraf etish va sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro forumlar birgalikda yuqori

saviyada o'tkazildi. Davlat boshqaruvida ilg'or tajriba almashish yuzasidan hamkorlik kelishuvi imzolandi. "Sifatli davlat boshqaruvi" dasturi ana shu hamkorlikning amaliy natijasidir.

Prezidentimiz mazkur dastur davlat idoralari faoliyatini xolis baholash, ularning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, ilg'or tajribasini keng ommalashtirish hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlandi.

Bu davlat tashkilotlarini rag'batlantiruvchi va ilhomlantiruvchi dastur. U rahbar va xodimlarni yangi yutuqlar sari undaydi, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlari sifatini oshiradi hamda barqaror va shaffof faoliyat tamoyillarini kundalik me'yorga aylantiradi.

Zero, "Vazirlik va agentliklar, qo'mita va inspeksiyalar faoliyatini xolis baholash, ularning aholi oldidagi mas'uliyatini yanada oshirish endi doimiy e'tiborimizda bo'ladi. Bundan buyon "jarayon uchun" emas, "natija uchun" ishlab tamoyili idoralari faoliyatida asosiy mezoniga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, "Sifatli davlat boshqaruvi" dasturi mutlaqo yangi boshqaruv madaniyati va dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan islohotdir", dedi davlatimiz rahbari.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu tashabbus tufayli strategik maqsadlar amaliy natijalarga aylanadi. Bu esa dastur mamlakat taraqqiyoti sari muhim qadam va umummilliy harakatga aylantayotganini anglatadi. Asosiysi, "Sifatli davlat boshqaruvi" dasturi shunchaki tanlov emas, balki yangi va samarali boshqaruv madaniyatini shakllantirishga qaratilgan harakatdir.

OSMON QADAR QADRIM BORLIGINI BILDIM

Shukrona

Bu yilgi muborak Qurbon hayiti kutilmagan voqea tufayli hayotimda unutilmas kun sifatida xotiranga muhurlandi. Sababi menga Zozyovon tumani "Yuqori Soybo'yi" mahalla fuqarolar yig'ini hududidan bir xonali xonadon sovg'a qilindi.

Prezidentimizning qaroriga muvofiq berilgan xonadonning umumiy maydoni 40 kvadrat metrdan ziyod. Bu hajm katta oilalarga kichik ko'rinishi mumkin, lekin men uchun u dunyodagi eng katta, yorug' va fayzli xonadon. Chunki u orqali men qadr topib, Vatanimning mehrihi his etdim. Xonadondagi shart-sharoit, imkoniyatlar ko'nglimni osmon qadar yuksaltirdi. Hamma narsa muhayyo.

Dadam vafot etib, onam ota uyiga qaytib kelganida akam ikkalamiz murg'ak bolakay edik. Birda quvonch, birda mahzun kunlarni boshdan kechirdik. Ammo hech

qachon yolg'izlanib qolganimiz yo'q. Onam, bobolarim, mahalla ahli bizga shart-sharoit yaratib berishga, qo'llab-quvvatlashga harakat qilgan. Og'ir xastalikkdan so'ng 2021-yili onam olamdan o'tdi. Men bobom vasiyigidagi o'sib, kamolga yetdim. Zozyovon tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi, bolalarini ijtimoiy himoya qilish sho'basini mas'ullari oilaviy sharoitimizni o'rgandi. Natijada uy-joy olishim uchun zarur tavsiyalar berishdi. Yangi uyga ko'chib kelganimdag i xursandlikni so'z bilan ifodalab berolmayman. Uyning kalitini topshirish ham katta tانتanaga aylanib ketdi. Ko'zingga quvonch yoshi quyilib keldi. Inson

qadr-qimmatini hamma narsadan ustun bo'lgan mamlakatda yashayotganimdan faxrlandim. Qo'ni-qo'shnilar juda mehribon, samimiy. Ular bilan birinchi kunning o'zidayoq inoqlashib ketdik.

Onam xasta bo'lib yotganida chorasiz qolib, "Ulg'aysam, albatta, shifokor bo'laman", deb orzu qilganman. Maqsadim yo'lida maktabni a'lo bahoga tamomladim. Hozir Farg'ona jamoat salomatligi institutida o'qish uchun hujjat to'playapman. Bu yerda yetuk malakali shifokor bo'lib, el-yurt salomatligi yo'lida sidqildidan mehnat qilaman.

Yangi uy ertangi farovon hayotimiz yo'lida ulkan imkoniyat eshiklarini ochdi. Barchasi uchun Prezidentimizdan cheksiz minnatdorman.

**Nodirabegim NO'MONOVA
Farg'ona viloyati Zozyovon tumani**

UMID BAXSH ETGAN QAROR

Insonga yashash uchun hayot bir bor beriladi. Shu bois, o'zimiz istagandek yashashni xohlaymiz. Ammo umr yo'li doim bir tekis bo'lavermas ekan. Bir kun kelib, yosh holimda shunday tushkunlikka tushib qolaman deya o'ylamagandim. Yoshlikdagi e'tiborsizlik tufayli sog'lig'imdan ayridim. Shunda inson uchun eng katta boylik salomatlik ekanini angladim.



Sog'lig'ingizda muammo bo'lsa, hayot ko'zingizga qorong'i ko'rinarkan. Bir buyragim yaxshi ishlamay qoldi. Borgamam shifoxonam qolmad. Ko'plab shifokorlardan maslahat so'radim. Umid bilan tabiiylarning mulojasidan ham foydalanib ko'rdim. Bari besamar ketdi. Vrachlar buyragimni almashtirish zarurligini aytdi. Bu gapdan so'ng ko'nglimda umid uyg'ondi.

Turmush o'rtog'im, ikki farzandim bor. Ular uchun ham yashashim kerak. Harakatga tushdim. Miymada "demak, iloji bor" degan fikr paydo bo'ldi. O'zimcha hozirik ko'rib, shifoxonaga yo'l oldim. Qayta tekshirulardan o'tib, shifokorlarga maqsadimni aytdim. Ular "yo'q" demadi. Lekin buning uchun katta mablag' kerak ekanini eshitib, nima qilishni bilmay qoldim. Bunday tibbiy amaliyotga

qurbimiz yetmas edi. Umidim bir zumda puchga chiqqandek bo'ldi. Yashashga ishtiyogim umuman yo'qolgandi. Hafsalasiz uyga qaytdim. Oilamadagilar ham tushkunlikka tushib qoldi.

Gohida ayrim bemorlar bilan subbatlashib qolardim. Ko'pi falon ming dollar sarflab, Hindistonga borish kerakligini aytardi. Yana biri boshqa joyda katta mablag'ga jarrohlik amaliyoti qilish mumkinligini aytib, maslahat berardi. Bu gap-so'zlarni eshitib, orzularim barbod bo'lib borardi. O'sha vaqtlarda imkonsizligimdan o'zimga achinar, boshqalar bergan taskinlar yoqmasdi. Keyingi olti oydan buyon buyrak yetishmovchiligi sabab ahvolim yaxshi emasdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan yaqinda qabul qilingan "Muborak Qurbon hayiti munosabati bilan aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mehr-saxovat tadbirlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi qaror tufayli hayotim tubdan o'zgardi. Ushbu hujjat asosida jarrohlik amaliyotiga muhtojlar qatorida men ham bor edim. Yangi O'zbekistonda inson qadri barcha narsadan ustun ekanini o'z tanamda his etdim.

Hozir jarrohlik amaliyotiga hozirlik ko'ryapmiz. Tez orada buyrak ko'chirib o'tkaziladi. Nasib etsa, tez fursatda sog'lig'imni tiklab, oilam bag'riga qaytaman. Buning uchun Prezidentimizga rahmat. Shunday yurtda tug'ilib, yashayotganimdan quvonchim cheksiz.

**Muhriddin BOLTAYEV
Qashqadaryo viloyati
Nishon tumani**

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

BOLALAR HUQUQLARINING KAFOLATI – YORQIN KELAJAK POYDEVORI



Boshlanishi 1-betda

Sa'y-harakatlar natijasida, avvalo, bolalar mehnatiga barham berildi. Ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha maxsus tashkilotlar ta'sis etildi. Bolaning qarashlarini hurmat qilishga oid huquqiy asoslar, yetim va otana qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning manfaatlarini himoyalash tizimi kuchaytirildi. Nogironligi bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoyalash, bolalarning sog'liqqa bo'lgan huquqlarini ta'minlash choralari ko'rildi. Qurolli mojarolar sodir bo'layotgan hududlardan o'zbekistonlik bolalarni qaytarish yuzasidan ko'rilgan tadbirlar esa insoniylikning eng oliy ko'rinishi bo'ldi.

Bugun bolalarga nisbatan zo'raonlikning barcha shakllarini bartaraf etishga qaratilgan ishlar ijrosi qat'iy nazoratda. Aholining bola huquqlari to'g'risidagi xabardorligini oshirish borasidagi tadbirlar esa bolalar zo'raonligi bilan bog'liq ko'plab holatlarning oldini olishga qaratilgan bilan ahamiyatli. Vaholanki, otanalar tomonidan bolalarga nisbatan tabiiy hol sifatida qaralib, qo'llanadigan ko'plab harakatlar qonun uning huquqlari buzilishiga sabab bo'ladi.

Zo'raonlik xavfi ostidagi bolalarni himoya qilishda "Professional tutingan oila" xizmati ishga tushirilishi tizimda shu paytgacha kuzatilmagan yondashuv. Bu shunchaki yetim yoki otana qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uyga qabul qilish emas, balki zo'raonlikdan jabrlangan yoki shunday xavf ostida bo'lgan bolalar bilan ishlash, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan professional shaxslar g'amxo'rlik shaklidir.



PROGRESSIV VA DADIL O'ZGARISHLARNING MUHIM QADAMI

So'nggi yillarda davlatimizda bola huquqlarining ishonchli himoyasiga qaratilgan yangi yondashuv va ustulbar joriy etildi. Bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid maxsus qonunchilik bazasi yaratilib, uni ijro etish yuzasidan samarali huquqiy mexanizm yo'lga qo'yildi. Ayni paytdagi bola huquqlarini himoyalashga oid davlat siyosati esa sohada yana ko'plab muhim va dolzarb masalalarni hal etishni taqozo etmoqda.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 19-noyabr kuni Oliy Majlis Senatining parlament sayilovidan so'ng o'tkazilgan birinchi majlisidagi nutqida ta'kidlaganidek, madaniyatimizga xos bo'lmagan illatlarga qarshi murosasiz munosabatda bo'lishimiz va ayovsiz kurashishimiz shart. Bolaning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiladigan, jismoniy va ruhiy azob yetkazishi mumkin bo'lgan barcha holatlarda davlat tomonidan tegishli huquqiy va ijtimoiy choralar ko'rinishi qonun bilan mustahkamlab qo'yildi. Xususan, Konstitutsiyaga muvofiq, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'raonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

2024-yil 14-noyabrda imzolangan "Bolalarni zo'raonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun bilan bolalarga nisbatan zo'raonlikning jami 6 ta shakliga ta'rif berilib, ularni sodir etishni taqiqlash hamda qonun ta'qib qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlandi. Bolalarga nisbatan zo'raonlikning oldini olishga doir chora-tadbirlar va ularni samarali amalga oshirish mexanizmi belgilandi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga ko'ra, ishtirokchi davlatlar bolani jismoniy va ruhiy zo'raonlik, haqoratlash va suiiste'molliklar, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik yoki beparvolik bilan muomalada bo'lish, qo'pol muomala qilish yoki otana, qonuniy vasiylar yoki bola haqida g'amxo'rlik qiluvchi har qanday boshqa shaxs tomonidan ekspluatatsiya qilish, jumladan, shahvoniy suiiste'molliklar sodir etishning har qanday shakllaridan himoya qilish shartligi belgilangan.

Konvensiyada ko'zda tutilgan mazkur xalqaro majburiyatning O'zbekistonda qay tarzda bajarilishi tahlili nuqtayi nazaridan bolaga nisbatan zo'raonlikka oid xabarlar bolalar ombudsmeni tomonidan alohida nazoratga olingan holda o'rganilmoqda. Mutasaddi idoralar bilan birgalikda bunday mazmundagi har bir holat individual va har tomonlama o'rganish asosida zarur choralar ko'rilyapti. Mazkur dolzarb yo'nalishdagi faoliyatni samarali va ta'sirchan tashkil qilish uchun asosiy dastak bo'ladigan hujjat — "Bolalarni zo'raonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun bilan bolalarni zo'raonlikdan himoya qilishning mutlaqo yangi tizimi yo'lga qo'yildi. Asosiy maqsad zo'raonlikning oldini olish, undan jabr ko'rgan bolalar bilan ishlash tizimini yaratishdan iborat.



Surayyo RAHMONOVA, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (bolalar ombudsmeni)

bo'lib, qonun bilan taqiqlanadi va ta'qib qilindi deb qat'iy belgilandi.

Bolaning asosiy ehtiyojlarini degan tushuncha ham qonun bilan mustahkamlandi. Bunda bolaning to'laqonli rivojlanishi, jismoniy va ruhiy salomatligi uchun oziq-

reabilitatsiya qilish, huquqlarini tiklash va ijtimoiy moslashtirish mexanizmining huquqiy asosi hisoblanadi. Xususan, har qanday turdagi zo'raonlikdan jabr ko'rgan bola zo'raonlik qurboni deb tan olinadi va u zo'raonlikning barcha shakllaridan himoyalash, zo'raonlik holati yuzasidan davlat organlari yoki sudga murojaat qilish, bepul huquqiy, ijtimoiy, ruhiy va tibbiy yordam olish, himoya orderi talab qilish hamda yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplatish huquqiga ega.

Shuningdek, qonun bilan bolalarni zo'raonlikdan himoya qilish uchun umumiy va individual choralar belgilanib, himoya orderi berish, jabrlangan yoki xavf ostidagi bolaga kompleks yordam ko'rsatish, bolaning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganda uni qonuniy vakillari qaramog'idan olib qo'yish kabi ta'sirchan mexanizmlar asos solindi.

Yurtimizda bolalarni zo'raonlikdan himoya qilish jarayoni keyingi, tarixan muhim huquqiy-institutsional bosqichga o'tayotgani Prezidentimizning 2025-yil 24-dekabrda "2026-2030-yillarga mo'ljallangan bolalarni zo'raonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi faronida ham yaqqol ko'rinadi. Strategiya bolalar uchun zo'raonlikdan xoli muhit yaratish, xavf ostidagi bolalarni erta aniqlash hamda jabrlangan yoki zo'raonlikka guvoh bo'lgan bolalarga kompleks yordam ko'rsatishni ustuvor vazifa sifatida belgilab, sohada mutasaddirlar olib boradigan izchil, tizimli va idoralararo faoliyat uchun asosiy dasturilamal hujjatdir. Strategiya doirasida bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy, psixologik, ta'lim va huquqiy xizmatlar ko'rsatishni kengaytirish,

qilish choralari muhim yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Bolalar o'z huquq va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qilishda kattalarga nisbatan zaifligi tufayli ish yurituvining barcha prosessual bosqichlarida ularga samarali yuridik yordam, vakillik hamda ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlash kafolatlanishi shart. Strategiya bilan aynanana shu kafolatlar ta'minlanishi mexanizmi yo'lga qo'yilmoqda. Jumladan, bolaga qarshi jinoyatlar sodir etilganda jabrlanuvchiga ruhiy ziyon yetkazmaydigan sharoit yaratish, zo'raonlikka guvoh bo'lgan bolalarga alohida yondashuvni qo'llash, shuningdek, malakali advokat, psixolog va qonuniy vakillarni o'z vaqtida jalb etish va tekzor idoralarga o'ziga xos amaliyotni shakllantirish talab etiladi. Bu esa bola manfaatlariga oid ishlar bilan ishlash bo'yicha ixtisoslashgan kadrlar korpusini shakllantirishni taqozo etadi.

Strategiyaning yana bir ahamiyatli jihati, ta'limdan chetda qolgan va ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish, jamiyatga moslashtirish, oilalar bilan ishlash yo'nalishida bolaga nisbatan zo'raonlik xavfini kamaytirish, otanalarini qo'llab-quvvatlash qamrab olingan. Ya'ni ijtimoiy xavf ostidagi bolalar bo'yicha ishlashda nafaqat qat'iy choralar ko'rish, balki otanalarini ijtimoiy murakkab vaziyatlarda qo'llab-quvvatlash orqali oilaning farzand uchun farovon va barqarorligini ta'minlash yondashuviga tayyanlanmoqda. Zero, bugungi kunda farzandi uchun xavfsiz, jismonan va ruhan sog'lom muhit yaratish o'ta-onaning birlamchi vazifasi ekanini tushuntirish, bu borada ularning bilim hamda ko'nikmasini,

FARZANDLARIMIZ MAKTABGACHA TA'LIMNI OLISHGA HAQLI



Gulbahor PARIPIYEVA, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti bo'lim boshlig'i

Bolaning asosiy ehtiyojlarini tushunchasida ta'lim olish alohida o'rin tutadi. Chunonchi, shaxsning shakllanishi, jamiyatda munosib o'rin topishini ta'lim tizimimiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uzoq yillar maktabgacha ta'limi olmay, 1-sinfga borgan bolalar pedagoglarni qiyab keldi.

Odamlarda bolaning asosiy ehtiyojlarini degan tushunchaning o'zi shakllanmagan, shuning uchun ularni maktabgacha ta'limga bermaslik oddiy holdek qabul qilingan. Shu ma'noda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mamlakatimizda inson qadriyatining har narsadan ustunligiga birlamchi e'tibor qaratildi. U har kimga bilim olish huquqini beradi. Shuningdek, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning turlari, shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi, maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilab qo'yildi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratida ekanini qonun bilan mustahkamlandi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatimiz aholisining 3 milliondan ziyodini 3-7 yoshli bolalar tashkil qiladi. 2017-yilda bog'chalarga qamrov darajasi 30 foiz ham bo'lmagan holda bugun bu raqam ikki barobardan ortdi. Prezidentimizning 2021-yil 10-iyundagi "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu borada dasturilamal bo'ldi. Maktabgacha ta'limga qamrab olishda avval bo'lmagan muvofiq shakllar paydo bo'ldi, yangicha amaliyotlar qo'llanila boshladi. Amaliy ishlar natijasida hozirga kelib maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 38 mingtaga yetgan bo'lsa-da, bog'chalarga navbatlar uzun. Shundan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 78 foizga, 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrab olish ko'rsatkichi 96 foizga yetkazildi. Bepul tayyorlov guruhlarda maktabga sifatli tayyorlash ishlari olib borildi. Raqamlarning yildan yilga oshib borishi esa MTT tarmog'ini kengaytirishga xizmat qiladi.

Yangi turdagi MTTlarning tizimga kirib kelishi natijasida davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari soni 8 barobar oshdi. Tizim samaradorligini oshirish uchun davlatimiz rahbarining 10 ga yaqin farmon va qarori imzolandi. Ta'limga eng ko'p e'tibor berilgan 2025-yilda 100 dan ortiq davlat, 100 dan ziyod xususiy sherkik asosidagi yangi MTT va 1200 ga yaqin oilaviy bog'cha ochildi. Buning natijasi o'laroq, joylarda 100 mingga yaqin bola o'rni yaratildi. Qamrovni oshirish maqsadida yangi zamonaviy loyihalar asosida 38 ta MTT qurib bitkazildi. 129 tasi rekonstruksiya qilinib, 15 tasi mukammal ta'mirlandi. Chekka va olis, tog'li, MTT qurish imkoni bo'lmagan hududlarda 30 ta yangi avtobus negizidagi 60 ta mobil guruhlari qurib bitkazildi. 129 tasi mukammal ta'mirlandi. Chekka va olis, tog'li, MTT qurish imkoni bo'lmagan hududlarda 30 ta yangi avtobus negizidagi 60 ta mobil guruhlari qurib bitkazildi. 129 tasi mukammal ta'mirlandi. Chekka va olis, tog'li, MTT qurish imkoni bo'lmagan hududlarda 300 ga yaqin bola maktabgacha ta'limga jalb etildi.

200 dan ziyod MTTda inklyuziv ta'lim yo'nalishi tashkil etilishi ham bola huquqlari ro'yog'ga chiqishiga xizmat qilyapti. Zero, avval nogironligi bo'lgan, alohida e'tiborga muhtoj bolalar bog'cha nimaligini bilmagan. Aksincha, otanalar ham bunday farzandlari sog'lom bolalar bilan birga bo'lishni istamagan. Bugun esa otanalarining o'zlarini inklyuziv ta'limning mohiyati, bola hayotida nechog'liq ahamiyatga ega ekanini tushunib yetyapti. Inklyuziv guruhlarga qamrab olingan bolalar bilan korreksiya rivojlantiruvchi ishlarni olib borayotgan tarbiyachi, yordamchi, psixolog, defektolog, logopedlar ish haqiga qo'shimcha ustamalar belgilandi. Aslida, juda katta mablag'ga aylanadigan bu tajriba davlatimizning maktabgacha ta'lim qamrovini oshirish yo'lidagi eng ezuq ishlaridan biri bo'ldi.

Ayni paytda 60 ga yaqin tuman (shahar) da ilk rivojlanish markazlari tashkil etildi. Maktabgacha ta'lim xizmatlaridan foydalanishning ajoyib muqobil bo'lgan, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan bu shakl o'zini oqlayotgan tajriba sifatida respublikamizning barcha hududlariga tatbiq etilyapti. Chunonchi, bu markazlar maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan 3-6 yoshli bolalar uchun "o'yin guruhlari" va alohida ta'lim olish ehtiyojlarini bo'lgan bolalar uchun "maxsus maktabgacha ta'lim xizmati" modellarini asosida ish yuritaypti.

Bolani uning asosiy ehtiyojlaridan biri bo'lgan maktabgacha ta'lim bilan ta'minlamaslik bola huquqlari buzilishidir. Shu holatga yo'l qo'yilmasligi uchun bugun mahallalar kesimida tizimli ishlar tashkil etilyapti. Kam ta'minlangan oilalarning farzandlari intmiyozli tarzda bolalar bog'chalarga qabul qilyapti.

Ilk rivojlanish markazlarida ham ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam farzandlari MTTga navbat kelguniga qadar interaktiv usullar bilan tarbiyalanyapti. Aholi kam, MTT qurish imkoni bo'lmagan hududlarda zamonaviy ko'rinishdagi ko'chma bog'chalarning o'zi yetib boryapti.

Mutasar aytganda, qanday qilib bo'lmagan, har bir bolaning maktabgacha ta'limni olish huquqini ta'minlash bugun hech bir davrda bo'lmagan bosqichga ko'tarildi.

Sahifani "Yangi O'zbekiston" muxbiri Munojat MO'MINOVA tayyorladi.



ovqat, uy-joy va boshqa zarur sharoitlar bilan ta'minlash, xavfsizlik, ta'lim olish, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish va imkoniyatlarini ro'yog'ga chiqarish uchun shart-sharoitlar — bolaga ta'minlanishi shart bo'lgan asosiy ehtiyojlar doirasini belgilab berdi.

Hujjat davlat bolalarni zo'raonlikning barcha shakllaridan himoya qilish uchun huquqiy, ma'muriy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa choralar, shu jumladan, bola va uning oilasini qo'llab-quvvatlashi hamda bolalarga nisbatan zo'raonlik holatlarini aniqlash va oldini olish, zo'raonlik holatlari haqida xabar berish, ushbu holatlarni tergov qilish, aybdorlarni javobgarlikka tortishning muqarrarligini ta'minlash, zo'raonlik qurbonlarini

individual yondashuvni joriy etish, shuningdek, bolalar bilan ishlashda ijtimoiy yondashuvga asoslangan kichik hajimli, ochiq formatdagi markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish ham nazarda tutilgan.

Bunday shakldagi markazlarning tashkil etilishi bola uchun xavfsiz va do'stona muhitni ta'minlagan holda u boshidan kechirayotgan murakkab vaziyatga maxsus va malakali yordam ko'rsatish imkonini yaratadi.

Shuningdek, bolalar manfaatlarini tergov va sud jarayonlarida ishonchli ta'minlash, sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislarini maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish hamda idoralar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, bolalarga nisbatan zo'raonlik holatlarini yagona elektron tizim orqali hisobga olish va monitoring

muhami, bolani bosim va tazyiqdan xoli usullarda tarbiyalash tafakkurini shakllantirish nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Xulosa o'rinda aytish kerakki, 2026-2030-yillarga mo'ljallangan bolalarni zo'raonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasi O'zbekistonda so'nggi yillarda farzandlarimiz manfaatlarini himoya qilish yo'nalishidagi progressiv va dadil islohotlarning keyingi muhim qadami bo'lib, sohada mutlaqo yangi formatdagi tarixiy davrga asos solmoqda. Mazkur hujjat bolalar uchun zo'raonlikdan xoli farovon hayot yaratish nafaqat davlatning, balki butun jamiyatning birdek vazifasi ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun bolaning eng ustun manfaatini ta'minlash yo'lida barcha sa'y-harakatlarimiz mustarak bo'lishi zarur.



Aktam HAITOV,
O'zbekiston fermerlari
kengashi raisi



Islahotlar samarasi

DEHQON MANFAATI VA ILM-FANGA ASOSLANGAN PAXTACHILIK

Bugungi keng ko'lamli islohotlar mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoq'ini qatorida qishloq xo'jaligida ham mutlaqo yangi taraqqiyot bosqichini boshlab berdi. Ayniqsa, paxtachilik sohasidagi tub o'zgarishlar nafaqat agrar tarmoq, balki milliy iqtisodiyotning strategik kelajagini belgilab berayotgan muhim omilga aylanmoqda.

Chunki paxtachilik bugun shunchaki xomashyo yetishtiriladigan soha emas. Aksincha, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan, sanoatni rivojlantiradigan, eksport salohiyatini oshiradigan va yuz minglab odamning bandligini ta'minlaydigan ulkan iqtisodiy tizimdir.

Yaqin o'tmishda paxtachilik asosan reja va majburiyatga qurilgan edi. Paxta yetishtirishda asosiy e'tibor sifat va samaradorlikka emas, balki rejaning bajarishiga qaratilgan sohaning rivojlanishini cheklab qo'ygandi. Eng achinarlisi, bu jarayon ko'p hollarda majburiy mehnat bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchilar, shifokorlar, talabalar va boshqa soha vakillari ham qishloq xo'jaligi yumushlariga jalb qilinardi. Bu esa mamlakatning xalqaro imijiga salbiy ta'sir ko'rsatib, o'zbek paxtasiga nisbatan xalqaro byoktdor joriy qilinishiga yetgani ma'lum-ku!

Nihoyat Prezidentimiz tashabbusi bilan bu kabi og'riqli muammolarni bartaraf etishda mutlaqo yangicha yondashuv shakllantirildi. Paxtachilik sohasida majburiy mehnatga butunlay barham berildi, klaster usuli joriy etildi va bozor iqtisodiyoti mexanizmlari keng yo'lga qo'yildi. Eng muhimi, dehqon va fermerlikka davlat siyosati darajasida e'tibor qaratila boshladi.

So'nggi yillardagi bunday yangilanishlar qisqa muddatda amaliy natijasini ko'rsatdi.

Ilgari paxta hosildorligi nari borsa, gektaridan o'rta 15-25 sentner atrofida bo'lgan bo'lsa, bugun zamonaviy agrotexnologiyalar, ilmiy yutuqlari va samarali boshqaruv orqali hosildorlik 85 sentnergacha yetmoqda. Bu esa yerga, dehqon mehnatiga munosabat mutlaqo o'zgarib, agrotexnik xizmat va nazorat tizimi yangi bosqichga chiqqanini anglatadi. Ayniqsa, paxta tolasini mamlakatda chuqur qayta ishlash tizimi islohotlarning eng muhim strategik yutuqlaridan bo'ldi. Tasavvur qiling: agar 2016-yilgacha yetishtirilgan paxta tolasining atigi 40 foizi yurtimizda qayta ishlangan bo'lsa, bugun tolaning deyarli 100 foizi ichki sanoatda qayta ishlanmoqda. Bu esa O'zbekistonning xomashyo eksport qiluvchi davlatidan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi mamlakatga aylanib borayotganini ko'rsatadi.

Natijada respublika bo'ylab 350 ga yaqin zamonaviy to'qimachilik korxonasi tashkil etildi. To'qimachilik mahsulotlari eksporti so'nggi yillarda qariyb 4 barobar oshib, 3 milliard dollarga yetdi. Eng muhimi, bugun o'zbek brendidagi mahsulotlar 80 dan ortiq davlatga eksport qilinmoqda. Bu mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatchilik toboraga olib borayotganidan dalolat.

Paxtachilik sohasidagi islohotlar xalqaro nufuz nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyat kasb etdi. Xalqaro mehnat tashkiloti va "Cotton Campaign" koalitsiyasi bilan tizimli hamkorlik,



majburiy mehnatga qarshi qat'iy choralar ko'rilishi tufayli 2022-yil 10-mart kuni o'zbek paxtasiga qo'yilgan 12 yillik boykot bekor qilindi. Keyinchalik AQSH Mehnat vazirligi ham cheklovlarini olib tashladi. Bu yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi muhim siyosiy va iqtisodiy g'alabalardan biri sifatida baholandi.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlarning samarali o'tkazilishida Prezidentimiz rahbarligidagi videosektor yig'ilishlari muhim boshqaruv mexanizmi aylandi. Unda sohadagi dolzarb muammolar tahlil qilinib, aniq vazifa va muddatlar belgilanmoqda. Eng muhimi, qabul qilingan qarorlar qisqa muddatda normativ-huquqiy hujjatlariga aylantirilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Xususan, 2025-2026-yillarda qabul qilingan farmon va qarorlar asosida fermerlarga keng

oliyaviy imtiyozlar berildi. 10 yildan ortiq muddatdan buyon faoliyat yuritayotgan, krediti hamda soliq qarzdorligi bo'lmagan fermerlarga paxta uchun 8 foizli, g'alla uchun esa 10 foizli imtiyozli kreditlar ajratish tizimi joriy etildi. Paxta uchun olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytargan fermerlarga foiz to'lovining bir qismi davlat tomonidan kompensatsiya qilib beriladigan bo'ldi.

Shuningdek, dizel yonilg'isi va mineral o'g'itlarni imtiyozli narxlarda yetkazib berish tizimi yo'lga qo'yildi. Subsiya ajratish muddati 1 oydan 15 kungacha qisqartirildi. 50 dan ortiq turdagi kredit va subsidiyalarni inson omilisiz raqamli platformalar orqali olish imkoniyati yaratildi. Bu esa sohada shaffoflik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

2025-yildan boshlab paxtachilikda joriy etilayotgan 76x10 ekish tizimi esa sohadagi

“**Respublika bo'ylab 350 ga yaqin zamonaviy to'qimachilik korxonasi tashkil etildi. To'qimachilik mahsulotlari eksporti so'nggi yillarda qariyb 4 barobar oshib, 3 milliard dollarga yetdi.**

muhim innovatsion yangiliklardan biri bo'ldi. Xitoyning Shinjon tajribasi asosida yo'lga qo'yilgan mazkur usul qatorlar geometriyasini ilmiy asosda tashkil etish imkonini bermoqda. Qatorlar oraliq'ining 76 va ko'chatlar oraliq'ining 10 santimeter etib belgilanishi natijasida quyosh nuri, havo va namlikning bir tekis taqsimlanishi ta'minlanadi.

Bu esa fotosintez jarayonini kuchaytirib, hosildorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Tomchilatib sug'orish texnologiyalari bilan birlashtirilganda esa suv sarfi keskin qisqarib, gidrosamaradorlik ikki barobar ortmoqda. Shu bilan birga, mineral o'g'itlar va kimyoviy vositalar aniq nuqtaga yetkazilishi hisobiga resurslar tejalamoqda.

Bugungi paxtachilik endi qo'l mehnatiga emas, ilm-fan va yuqori texnologiyalarga tayanmoqda. "Ilm va izlanish bo'lmagan sohada taraqqiyot bo'lmaydi" tamoyili asosida Qishloq xo'jaligi fanlar akademiyasi tashkil etilmoqda. Sohadagi 22 ta ilmiy markaz va 260 ta laboratoriya faoliyati modernizatsiya qilinmoqda.

Ayni paytda O'zbekistonda Xitoy, AQSH, Turkiya, Hindiston, Rossiya va Qozog'istonning yuqori hosildor paxta navlari mahalliyashtirilmog'da. Mahalliy va xorijiy seleksiya asosida qurg'ochilikka, sho'rlanishga, kasalliklarga chidamli yangi avlod urug'lari yaratilmog'da. Xorijiy navlar ekiladigan

maydonlar hajmini 500 ming gektarga yetkazish rejalashtirilgan.

Zamonaviy texnologiyalar sohaga kirib kelmoqda. Dronlar yordamida bir gektar yerga atigi 7 daqiqada kimyoviy va biologik ishlov berish imkoniyati yaratildi. Raqamli monitoring tizimlari orqali dalal holati doimiy nazorat qilinmoqda.

Inson kapitaliga investitsiya kiritish ham muhim vazifaga aylandi. Toshkent davlat agrar universitetining 180 talabasi ilg'or klasterlarda amaliyot o'tamoqda. Talabalarga 1,5 million so'm stipendiya, ularga ustozlik qilayotgan fermerlarga esa 5 million so'm mablag' ajratilmog'da. Yosh agronomlarga 2000 dollargacha maosh to'lash tizimi joriy etilmog'da. Shu bilan birga, O'zbekiston fermerlari kengashi tomonidan yuzlab mutaxassislar Xitoy va Turkiyaga tajriba almashish uchun yuborilmog'da. Mirzacho'lda tashkil etilayotgan innovatsion qishloq xo'jaligi maktabida esa 1000 nafar fermer zamonaviy paxtachilik texnologiyalari bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tkaziladi.

Qisqasi, paxtachilik sohasidagi islohotlar yangi O'zbekiston iqtisodiyotining taraqqiyot modeliga aylanmoqda. "Xomashyodan — tayyor mahsulotgacha" tamoyili asosida shakllanayotgan zamonaviy agrosanoat tizimi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.



Shavkatbek IRGASHEV,
Toshkent shahri hokimi
maslahatchisi

Bugun dunyo shaharlari o'rtasidagi raqobat faqat osmono'par binolar, keng yo'llar yoki sanoat ko'lamida emas. Endi shaharning haqiqiy qiymati inson uchun qanchalik qulay, ekologik jihatdan barqaror va yashashga munosib muhit yaratilgan bilan baholanmoqda. XXI asrning eng og'ir muammolaridan biriga aylangan global iqlim o'zgarishi, havo ifloslanishi va urbanizatsiya bosimi jahonda yangi shaharsozlik falsafasini shakllantirmog'da. Bu falsafaning markazida esa inson salomatligi va tabiat bilan uyg'un hayoti turibdi.

Yurtimizda ham aynan shu yo'nalishda ulkan islohotlar o'tkazilmog'da. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi, shahar va mahallalarni ekologik jihatdan sog'lom muhitga aylantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar yangi taraqqiyot modelining amaliy ifodasidir. Bu modelda iqtisodiy o'sish tabiat hisobidan emas, balki tabiat bilan hamohang rivojlanish orqali ta'minlanishi kerakligi ustuvor tamoyilga aylangan.

Ayni shu nuqtayi nazardan qaraganda, Toshkent mahallalarida an'anaviy ariq tizimlarini qayta tiklash tashabbusi shahar muhitini qayta jonlantirish, inson va tabiat o'rtasidagi uzilgan bog'liqlikni tiklash, urbanizatsiyani milliy an'ana va zamonaviy muhandislik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan strategik yondashuvdir.



YOKI "YASHIL TOSHKENT" SARI BOSHLANGAN EKOLOGIK UYG'ONISH

Toshkent tarixi ariqlar tarixi bilan chambarchas bog'liq. Bu shahar asrlar davomida suv bilan nafas olgan. Ariqlar mahallalarni bog'lagan, havoni salqinlashtirgan, daraxtlarga hayot baxsh etgan, insonlarga esa ruhiy osoyishtalik ulashgan. Ota-bobolarimiz suvni faqat resurs sifatida emas, balki hayot manbai sifatida qadrlagan. Shuning uchun ham qadimgi mahallalar qurilishida ariq alohida o'rin tutgan.

Biroq vaqt o'tishi bilan urbanizatsiya jarayoni tezlashdi. Ko'plab ariqlar ko'mildi, ayrimlari ifloslandi, yana ba'zilar esa butunlay yo'qolib ketdi. Tabiiy suv aylanishi buzildi. Beton va asfalt yotqizilgan maydonlar kengaydi. Bu esa shahar mikroiklimiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bugun Toshkentda kuzatilayotgan qator ekologik muammolar — havo ifloslanishi, yozdagi kuchli issiqlik, havo namligining pasayishi, chang miqdorining ortishi aynan tabiiy muhit bilan inson o'rtasidagi muvozanat buzilgan oqibatidir. Shu ma'noda, ariqlarni qayta tiklash shaharning tabiiy nafasini qayta tiklash demakdir.

Mirzo Ulug'bek tumanidagi Katta Qorasuv mahallasida ishlab chiqilgan sinov loyiha bu boradagi eng muhim amaliy qadamlardan. 16 gektar hududni qamrab olgan mazkur loyiha ko'p qavatli uylar, maktab, poliklinika va sport majmualari joylashgan katta yashash hududi uchun mo'ljallangan. Loyihaning eng muhim jihati — an'anaviy usullarni zamonaviy muhandislik yechimlari bilan uyg'unlashtirganida.

Bu yerda suv ta'minoti bir nechta manba asosida tashkil etilmog'da. Ushbu manbalarga ochiq suv havzalari va kanallardan suv chiqarish, yer osti suvlaridan foydalanish uchun maxsus quduqlarni burg'ilash, suvni hovuzlarda to'plash va bosim asosida taqsimlash, ishlaltingan suvni qayta yer osti qatlamlariga yo'naltirish orqali tabiiy aylanishni tiklash kabilir kiradi. Loyihada 4500 metrdan ortiq beton lotoklar, suv chiqarish shlyuzlari, rezervuarlar, suv yutuvchi quduqlar va charxpalaklardan

foydalanish nazarda tutilgan. Eng muhimi, ushbu tizim energiya sarfini minimallashtirish asosida qurilmog'da. Ya'ni suv tabiiy oqim va relyef imkoniyatlaridan foydalanilgan holda harakatlanadi. Natija loyiha uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi.

Toshkent yozda 40 darajadan yuqori issiqlik kuzatiladigan shaharlardan. Bunday sharoitda havoni tabiiy usulda sovitish masalasi strategik ahamiyatga ega.

Mutaxassislar ta'kidlayotganidek, ochiq suv havzalari va ariqlar shahar mikroiklimini shakllantirishda katta o'rin tutadi. Suv bog'lanishi hisobiga havo namligi me'yoriylashtiriladi, harorat pasayadi, chang zararchalari og'irlashib, yerga tushadi.

Sinov loyihadagi keltirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, ariq tizimi joriy etilgan hududlarda PM2.5-mayda chang zararchalari 20-50 foizgacha kamayishi, tuproq yuzasidagi harorat 5-8 darajagacha pasayishi, havo namligi optimal darajaga ko'tarilishi mumkin. Bu raqamlar quruq statistika emas, balki inson salomatligi, nafas olish sifati, yurak qon-tomir kasalliklari xavfi kamayishi, bolalar va keksalar uchun qulay muhit yaratilishini bildiradi.

Bugun ko'pchilik shahar issig'ini havo sovutkichlar orqali yengishga urinmoqda. Ammo bu vaqtinchalik va qimmat yechim. Tabiatning o'zi yaratgan sovutish mexanizmini tiklash esa barqaror va uzoq muddatli yo'ldir.

Minglab daraxt ekish mumkin, ammo ularni suvsiz saqlab qolib bo'lmaydi. So'nggi yillarda mamlakatimizda keng ko'lamli ko'kalamzorlashtirish ishlari bajarilmog'da. Lekin ko'chatlarning qurib qolishi bilan bog'liq muammolar ham yo'q emas. Buning asosiy sabablaridan biri — muntazam sug'orish tizimining yetarli emasligidir. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, ariqlar "Yashil makon" loyihasining qon tomlari hisoblanadi. Loyiha doirasida suvga chidamli va havoni tozalovchi katalpa, chinor, qarag'ay, lavanda, barbaris kabi daraxt hamda buta ko'chatlarini

ekish taklif qilinmoqda. Bu o'simliklar nafaqat mahzara uchun, balki shahar ekotizimini shakllantirish uchun ham xizmat qiladi. Ular havoni tozalaydi, soya beradi, tuproqni mustahkamlaydi va inson psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pchilik ekologik loyihalarni tabiat bilan bog'liq masala deb qabul qiladi. Aslida, bu ijtimoiy masaladir. Chunki iflos havodan, birinchi navbatda, inson jabr ko'radi. "Issiqlik orollari" dan aholi aziyat chekadi. Daraxtsiz va quruq muhitda odam ruhiyati charchaydi.



Shu ma'noda, ariq tizimini qayta tiklash aholi turmush sifatiga investitsiya kiritishdir. Buning bir nechta muhim jihati bor. Birinchidan, mahallalar salqin va qulay muhitga aylanadi. Ikkinchidan, aholining elektr energiyasiga xarajati qisqaradi. Havo sovutkich va shamol parraklariga ehtiyoj kamayadi. Uchinchidan, mahallalarning estetik qiyofasi o'zgaradi. Iflos zovurlar o'rinda oqar suvli toza muhit paydo bo'ladi. To'rtinchidan, bolalar uchun xavfsiz va jozibali muhit shakllanadi. Beshinchidan, mahalla aholisining tabiatga munosabati o'zgaradi.



Har qanday yaxshi g'oyani romantik tasavvurlar emas, amaliy mexanizmlar saqlab qoladi. Agar ariq tizimi muntazam tozalanmasa, u yana iflos zovurga aylanishi mumkin. Suv manbai barqaror bo'lmasa, tizim qurib qoladi. Foydalanish uchun mas'ul tizim shakllanmasa, loyiha faqat chiroyli konsepsiya bo'lib qoladi. Shuning uchun sinov loyihasida raqamli monitoring tizimlarini joriy etish taklif

suv tanqisligi va shahar issiqligi muammolariga duch kelmoqda. Demak, Toshkentda sinovdan o'tayotgan bunday model kelajakda mintaqa uchun namunaviy yechimga aylanishi mumkin. Ayniqsa, suvni qayta aylantirish, tabiiy namlikni saqlash va energiya tejamliligiga asoslangan muhandislik yechimlari strategik ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda mamlakatimizda "Inson qadri uchun" tamoyili davlat siyosatining bosh mezoniga aylandi. Bu tamoyilni faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki ijtimoiy yordamlar bilan cheklab bo'lmaydi. Inson qadri u yashaydigan muhitda ham namoyon bo'ladi. Agar inson iflos havodan nafas olsa, yozda qattiq issiqdan aziyat cheksa, quruq muhitda yashasa, hayot sifati haqida gapirish qiyin.

Gap shundaki, ariq tizimini qayta tiklash inson qadri ekologik jihatdan ta'minlanishning amaliy ko'rinishidir. Mazkur tashabbus odamlarga faqat suv emas, balki salomatlik, salqinlik, iqtisodiy tejamkorlik, estetik muhit va ruhiy xotirjamlik ham taqdim etadi.

Toshkentning kelajagi faqat beton va shishadan iborat bo'lmasligi kerak. Bu shahar yana suv shovillagan, chinorlar soya tashlagan, mahallalari nafas oladigan makonga aylanishi lozim. Chunki zamonaviy shahar tabiatni yo'q qilgan emas, aksincha, tabiat bilan yashashni o'rgangan shahardir. Mahallalarda ariq tizimini qayta tiklash loyihasi ana shu yangi falsafaning amaliy namunasi bo'lishi mumkin.

Agar bu tajriba izchil va professional asosda amalga oshirilsa, Toshkentning ekologik qiyofasini o'zgartirish barobarida butun mamlakat shaharsozligi uchun yangi standartni shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki ariq shunchaki suv yo'li emas, u shaharning nafasi, mahallaning ruhi, inson va tabiat o'rtasidagi uzilgan rishtani qayta bog'laydigan hayot tomiri.

Ishni rejali tashkil etish masalasi insoniyat taraqqiyotida doimo markaziy o'rinda turgan. Ayniqsa, Sharq mutafakkirlari va buyuk ajdodlarimiz o'z faoliyatida vaqtni samarali boshqarishga katta ahamiyat bergan. Ularning merosi bugungi zamonaviy menejment nazariyalari bilan uyg'un keladi va amaliy ahamiyatga ega.

Masalan, Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida jamiyat va shaxs faoliyatida tartib-intizom, maqsad va rejaning o'rnini chuqur tahlil qilgan. Mutafakkirning fikricha, har qanday muvaffaqiyatli faoliyat aniq belgilangan maqsad va unga erishish bosqichlarini rejalashtirish orqali amalga oshiriladi. U "fozil jamiyat" g'oyasida har bir inson o'z vazifasini reja asosida bajarishi orqali umumiy taraqqiyotga hissa qo'shishini ta'kidlaydi.



LOYIHAVIY BOSHQARUV – NATIJAGA QARATILGAN TIZIM

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida inson kapitali va ma‘naviy muhitni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa ma‘naviy-ma‘rifiy soha oldiga ham formal tadbirlardan voz kechish, jamiyat bilan muloqotni kuchaytirish kabi talablarni qo‘yadi.

Ma'rifatparvar ajdodlarimiz Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratning jadidchilik an'anasini tarix emas, balki bugungi kun uchun ham dolzarb metodologiyadir. Shu ma'noda, ma'naviy-ma'rifiy sohada ham samaradorlikka erishish uchun ucha asosiy mezon amal qilish zarur. Birinchisi, ilmiy asos, ya'ni sotsiologik tahlil. Ikkinchisi, loyihaviy yondashuvni oldindan rejalashtirish va samarali boshqaruv, uchinchisi, siyosiy iroda va ijro intizomi.

Sotsiologik tadqiqotlar va xalqaro tajribalar oldiga qat'iy maqsad qo'ygan yangi O'zbekiston sharoitida aynan shu uch mezon uyg'unligi jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni ta'minlashda muhim hisoblanishi prognozini beradi. Agar biz ma'naviy ishlarni faqat targ'ibot emas, balki aniq maqsadli, o'lchanadigan, natijaga qaratilgan jarayonga aylantira olsak, bu nafaqat islohotlar muvaffaqiyatini, balki millat kelajagini ham kafolatlaydi. Loyihaviy boshqaruv esa bu yo'ldagi eng muhim intellektual va amaliy vositadir.

Tahlillar ko'rsatmoqdaki, hududlarda, vazirlik va idoralarda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ayrim tizimli muammolar — targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda rasmiyatchilik kayfiyati va manzilsizlik, viloyat va tuman darajasida ko'p hollarda

qolyapti. Sababi, yoshlar orasida elektron kontent kitobdan ustun, kitob tanlash madaniyati shakllanmagan, ayrim hududlarda kitob fondi va infratuzilma yetarli emas. Mutolaa natijasini baholash mexanizmi yo'q. Eng achinarlisi, kitobxonlik ko'p hollarda targ'ibot darajasida qolib ketayotgani uning hayotiy ehtiyojga aylinishiga to'siq bo'layotir.

Bu sohada ham muammolar ildizi loyihaviy yondashuvning yetishmasligidir. Shu o'rinda Toshkent metropolitenida markaz tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan va hozirgi kunda takomillashtirilayotgan "Turon kitob bekati" loyihasi haqida to'xtalishni joiz deb bilamiz.

Metropoliten bu — yuqori harakatchanlikka ega bo'lgan ijtimoiy makon. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil holatiga Toshkent metropolitenidagi 50 ta bekat 70 kilometrdran ortiq masofani o'z ichiga olgan. O'tgan yil kuniga 1 millionga yaqin yo'lovchiga xizmat ko'rsatilgan. Har bir yo'lovchi kuniga o'rtacha 1-1,5 soat, haftasiga 7 soat vaqtni vagonida o'tkazadi. Agar kitob javonlaridan yo'lovchilarning atigi 1 foizi foydalansa, bir yilda kitobxon yo'lovchilar soni 2,73 milliontaga yetadi.

Ana shunday muhitda kitobxonlikni targ'ib qilishga qaratilgan "Turon kitob bekati" loyihasi aholining kundalik hayotiga madaniy iste'molning yangi shaklini kiritdi. Sotsiologik jihatdan bu "bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish" amaliyotini institutsionalashtirishga xizmat qilaypti.

Ushbu loyiha jamoat joylarini faqat transport infratuzilmasi sifatida emas, balki ma'naviy-ma'rifiy makon sifatida qayta talqin qilish imkonini beradi. Bu esa uy va ishdan tashqari inson o'zini rivojlantirishi mumkin bo'lgan shahar madaniyatini — "uchinchi makon" konsepsiyasini shakllantirishga turkib bo'lmoqda. Ochiq va inklyuziv muhit yaratilaypti.

Kitob bekatlari aholi o'rnatilgan ijtimoiy kapitalni oshirishga xizmat qiladi. Kitob almashish, tavsiya etish yoki jamoaviy o'qish amaliyotlari orqali odamlar o'rtasida ishonch va muloqot kuchayadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda madaniy integratsiyani mustahkamlaydi.

Yoshlar siyosati nuqtayi nazaridan qaraganda, "Turon kitob bekati" loyihasi yosh avlodni axborot xurujlaridan himoya qilish, feyk ma'lumotlarga emas, ulami chuqur tahlilga asoslangan bilim manbalariga yo'naltirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Ayniqsa, raqamli kontent ustunlik qilayotgan bir davrda an'anaviy kitobxonlikni jamoat makonda rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Agar har bir ma'naviy-ma'rifiy tashabbus aniq maqsad, belgilangan auditoriya, o'lchanadigan natija, tahlil va monitoring asosida amalga oshirilsa, bu muammolarning aksariyati bartaraf etilishi mumkin. Ya'ni har bir hudud, har bir auditoriya uchun alohida dastur ishlab chiqiladi, qarorlar real ma'lumotlar va tahlillarga tayanadi, har bir tadbirning natijasi KPI orqali o'lchanadi.

Bugungi global makonda g'oyalari uchun kurash kuchaymoqda. Axborot urushlari, madaniy ta'sirlar, raqamli tashviqot sharoitida yoshlar ongi uchun raqobat ortmoqda. Milliy identitlik masalasi dolzarblashmoqda, ma'naviy imunitetni kuchaytirish zarurati paydo bo'lmoqda. Bu esa ma'naviy-ma'rifiy ishlarni oddiy targ'ibotdan strategik faoliyatga aylantirishni talab qiladi.

Bugun bizdan muammolarni ochiq aytish, ilmiy yechimlar taklif qilish, jamiyat fikrini shakllantirish talab etilmoqda. G'oyani amaliy natijaga olib chiqish uchun esa loyihaviy fikrlash zarur. "Tanqididan taraqqiyotga" tamoyili bugungi muammolarni tan olishni zaiflik emas, balki rivojlanishning birinchi bosqichi deb qarashimizni taqozo etadi.

Loyihaviy boshqaruv faqat boshqaruv usuli emas. U yangicha fikrlash, yangi madaniyat, eng muhimi, bugungi islohotlar davrining talabi bo'lmish natija sari ishlash falsafasidir.

**Suhrob XIDIROV,
Ziyoda AKBARULOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi xodimlari**

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy tadqiqotlari rejali ish yuritishning yorqin namunasidir. U o'z izlanishlarida ma'lumot to'plash, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonlarini qat'iy tizim asosida amalga oshirgan. Ulug' allomaning ilmiy uslubiy zamonaviy loyihaviy boshqaruvdagi "rejalashtirish — amalga oshirish — nazorat" siklining tarixiy ildizi hisoblanadi.

Sohibqiron Amir Temur "Temur tuzuklari" asarida har qanday ishni oldindan puxta rejalashtirish, vazifalarni aniq taqsimlash va ijroni nazorat qilish tamoyillarini tilga olib, o'z muvaffaqiyatlarini aynan strategik rejalashtirish va intizomli boshqaruv natijasini ekanini ta'kidlaydi.

Jamiyatimizda ham so'nggi yillarda loyihaviy boshqaruv — project management alohida mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. Bu tadqiqotlar loyihaviy boshqaruvni faqat texnik yoki menejment vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlarni, institutlarni va inson xulq-atvori bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida o'rganadi.

Ijtimoiy nuqtayi nazaridan qaraganda, jamiyatda "rejali tafakkur" madaniyatini shakllantirgan buyuk ajdodlar tajribasi ham, bugungi loyihaviy boshqaruv bilan insonlarda mas'uliyat, intizom va natijaga yo'naltirilganlik kabi sifatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Ushbu qadriyatlar esa iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikning muhim omilidir.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat ko'p yillar davomida, asosan, umumiy ommaviy tadbirlar orqali amalga oshirilib kelindi. Targ'ibot-tashviqotga umumiy yondashish, doimiy auditoriyalar bilan ishlash, tashkiliy ishlarda formal xarakterga tayanildi. Senariylar bir xil edi, tadbirlar, eng asosiysi, sarflangan vaqt, kuch hamda mablag' samaradorligi o'rganilmadi. Xo'sh, bunday holatda ma'naviy-ma'rifiy sohada qanday qilib islohot qilish mumkin. Aslida, jamiyat ongiga ta'sir qilishda manzilli, aniq maqsadli, ilmiy asoslangan yondashuv zarur.

Loyihaviy boshqaruv aynan shu jihatdan muhim. U maqsadli auditoriyalarni aniq belgilaydi, resurslarni samarali taqsimlaydi, natijalarni o'lchash imkonini beradi. Shuningdek, sotsiologik tadqiqotlarga tayanadi, qisqa va uzoq muddatli strategiyalarni uyg'unlashtiradi. Bu esa ma'naviy-ma'rifiy ishlarni "natijaga qaratilgan tizim"ga aylantiradi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish, xususan, loyihaviy boshqaruv tizimiga bosqichma-bosqich o'tish bugungi globalashuv sharoitida muhim omil hisoblanadi. Xodimlarning kasbiy salohiyatini

oshirish, ularni loyihaviy fikrlash, strategik rejalashtirish va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv ko'nikmalari bilan ta'minlash asosiy reja sifatida belgilangan. Zero, ijtimoiy tahlillar ko'rsatadiki, tashkilotlarda innovatsion boshqaruv modellari joriy etish, avvalo, inson kapitali sifatiga bog'liq. Agar kadrlar yangi yondashuvlarni qabul qilishga va amalda qo'llashga tayyor bo'lmasa, islohotlar kutilgan natijani bermaydi.

Shu maqsadda 2025-yilning yanvar oyida markaz xodimlari uchun xalqaro PMP, Project management principles — loyihaviy boshqaruv tamoyillarini asosida loyihaviy boshqaruv asoslari, loyiha sikllari, KPI tizimi va monitoring-baholash mexanizmlarini qamrab olgan maxsus o'quv kurslari tashkil etildi. Unda nazariy bilimlar amaliy keyslar va treninglar orqali mustahkamladi. Shuningdek, markaz xodimlarida ilg'or yondashuvlar va amaliy instrumentlar bilan tanishish imkonini yuzaga keldi. Bu esa institutsional islohotlarning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi uchun nihoyatda muhimdir.

Innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish nafaqat tashkilot samaradorligini oshirish, balki umumiy ma'naviy-ma'rifiy siyosatni yangi

qayerda ishonch ortayotgani, qayerda zaiflashgani, qaysi qarorlar adolatli, qaysilari odamlarga manfaat keltirmayotgani bo'yicha doimiy ravishda monitoring va tahlillar o'tkazilishi har bir soha, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar samaradorligini ham belgilaydi.

Bugungi kunda ijtimoiy kayfiyat, yoshlar ongi, axborot ta'siri, qadriyatlar transformatsiyasini chuqur o'rganmasdan turib, samarali ma'naviy siyosat yuritib bo'lmaydi. Shu ma'noda, sotsiologiya faqat tahlil vositasi emas, balki strategik qarorlarning ilmiy poydevori hamdir. Masalan, qaysi hududda qanday ma'naviy muammolar bor? Qaysi yosh guruhi qanday axborot manbalariga ishonadi? Ushbu savollarga javob bermasdan turib, qabul qilingan dasturlar samara keltirmaydi. Loyihaviy boshqaruv esa aynan shu ma'lumotlarga asosan manzilli dasturlar, lokal tashabbuslar, maqsadli kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Darvoqe, so'nggi olti yilda qabul qilingan davlat dasturlari, jumladan, "O'zbekiston —



bosqichga olib chiqishning muhim shartidir. O'tgan yili markazda tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan 4 ta loyiha bo'limi media rejasi asosida 17 ta maqsadli loyiha amalga oshirildi.

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 13-mart kuni aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ta'kidlanganidek, endilikda bir martalik so'rovlar emas, balki

2030" strategiyasi ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirishni tizimli ravishda belgilab berdi. Unda inson kapitali rivoji, ma'naviy imunitetni kuchaytirish, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlarini asrash ustuvor vazifalar sifatida qayd etilgan. Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori doirasida

JAMIYATNING ERTANGI INTELLEKTUAL VA MA'NAVIY QIYOFASI

Tahlil

Bugun maktabgacha ta'lim tizimiga oid islohotlar, xususan, zamonaviy boshqaruvga o'tish jarayoni jadal tus olmoqda. Yangi standartlar, innovatsion yondashuvlar, malaka oshirish tizimi va boshqaruv kurslari yagona maqsad — ta'lim sifatini yanada oshirishga qaratilgan. Bola tarbiyasi va shaxs kamolotiga mustahkam poydevor aynan bog'cha davrida qo'yiladi. Shu ma'noda, maktabgacha ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor faqat sohaviy islohot emas, jamiyat kelajagini belgilaydigan strategik yo'nalish hamdir. Bu esa tashkiliy yangilanishlar bilan birga fikrlash tarzi, qarashlar va boshqaruv madaniyatini ham tubdan isloh qilishni taqozo etadi.

Zamonaviy pedagogikada ta'limni kelajak ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish asosiy masalalardan. Eski yondashuvlar bilan ishlash kelajak avlodni har tomonlama shakllantirish uchun yetarli emas. Shu bois, metodlarni yangilash va fikrlash madaniyatini o'zgartirish zarurati ham ortib bormoqda.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari va nomzodlari uchun bir oylik intensiv menejment kurslari yo'lga qo'yildi. Bu kurslar rahbarlarga zamonaviy boshqaruv, strategik rejalashtirish, inson resurslarini boshqarish va innovatsion fikrlash bo'yicha bilim berishga qaratilgan. Eng muhim jihat — tinglovchilardan o'z tashkiloti misolida innovatsion, zamon ruhiyatiga mos loyihalar tayyorlash talab etiladi. Bu yondashuv nazariyani amaliyotga yaqinlashtiradi. Biroq faoliyat shuni

ko'rsatmoqdaki, barcha loyiha ham real hayotga ta'lim berishga qaratilgan. Ushbu maqsadli auditoriyalarni aniq belgilaydi, resurslarni samarali taqsimlaydi, natijalarni o'lchash imkonini beradi. Shuningdek, sotsiologik tadqiqotlarga tayanadi, qisqa va uzoq muddatli strategiyalarni uyg'unlashtiradi. Bu esa ma'naviy-ma'rifiy ishlarni "natijaga qaratilgan tizim"ga aylantiradi.

ularning barchasi ham haqiqiy o'zgarishlarga aylana olmaydi.

2025-yilda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida 1185 tinglovchi menejerlik o'quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlab, sertifikat olgan. Shu davrda direktorlar orasidan 1505 tinglovchi qabul qilingan, ularning 810 nafari menejment sertifikatiga ega bo'lgan, 695 nafari 70 balldan past natija ko'rsatgan. Nomzodlar toifasida esa 838 tinglovchidan 407 nafari kursni muvaffaqiyatli yakunlagan. 2026-yilda esa 1500 direktor va 1000 nomzodni qamrab olish rejalashtirilgan.

Tahlillarga ko'ra, ayrim rahbarlarda amaliy topshiriqlarga ustuvor ahamiyat berilib, modullarni o'qish va test sinovlariga tayyorgarlikka nisbatan ikkinchi darajali yondashuv saqlanib qolmoqda. Holbuki, yakuniy baholash tizimida test va keys topshiriqlari 60 ball bilan asosiy ulushni tashkil etadi. Amaliy topshiriq esa 40 ball asosida baholanadi. Natijada ayrim tinglovchilar asosiy e'tibori va vaqtini loyiha ishlarga qaratayotgani test natijalariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Aslida, zamonaviy rahbardan faqat amaliy tajriba emas, balki kuchli nazariy tayyorgarlik ham talab etiladi. Ayniqsa, test yangilanayotgan axborotlashgan jamiyatda rahbarning o'z ustida mutazam ishlashi, nazariy va amaliy bilimlarini mutazam takomillashtirish borishi juda muhim.

Loyiha hujjat emas, balki boshqaruv madaniyatining amaliy ko'rinishidir. U "nima qilish kerak"dan ko'ra "qanday o'zgarish



qilish mumkin" degan savolga javobdir. Shu jihatdan menejment kurslari yangi sifat bosqichi bo'lishi kutilgan edi. Biroq amaldagi natijalarga qaralganda, tinglovchilarning muayyan qismi test sinovlarida yuqori natija ko'rsata olmayotgani kuzatiladi. Bu holatni faqat salbiy ko'rsatkich emas, balki tizimdagi zaif nuqtalarni ochib beruvchi muhim signal sifatida baholash to'g'riroq bo'ladi. Shu o'rinda ayrim tinglovchilar orasida "testlardan ko'zlangan maqsad xodimlarni baholashdan ko'ra ularni saralashga qaratilgan" degan qarashlar ham uchramoqda. Albatta, bunday yondashuv jarayon

mohiyatining noto'g'ri talqin etilayotganini anglatadi, biroq masala faqat baholash tizimiga munosabat doirasida qolib ketmaydi. Uning zamirida tayyorgarlik darajasi, mustaqil ishlash ko'nikmasi va zamonaviy boshqaruv talablariga moslashish kabi omillar ham muhim o'rin tutadi. Dunyo tajribasida, jumladan, Yaponiyada rahbarlar tayyorgarlik tizimida mentorlik muhim o'rin tutadi. Yangi direktor tajribali rahbar bilan birga ishlash orqali boshqaruv jarayonlarini bevosita amaliyotda o'rganadi. Shu tariqa rahbarlik ko'nikmalari real faoliyat jarayonida shakllanib, tajriba orqali mustahkamlanadi.

Mamlakatimizda ham bu yo'nalishda ishlar izchil davom ettirilmoqda. Malaka oshirish kurslari, innovatsion loyihalar va turli dasturlar kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim rahbarlar o'z loyihasini amaliyotga tatbiq etib, guruh ishlari va bolalar rivojida sezilarli o'zgarishlarga erishmoqda. Bu ijobiy tendensiya mavjudligini tasdiqlaydi. Biroq ayrim yo'nalishlarda ishlarni yanada takomillashtirish zarur. Loyiha ishlarni amaliyot bilan uzviy bog'lash, baholashda test natijalari bilan bir qatorda real samaradorlikka tayanish hamda rahbarlar uchun uzluksiz amaliy rivojlanish muhitini yaratish bugungi muhim yo'nalishlardan. Rahbarlik tushunchasi ancha kengaydi. Uni faqat lavozim doirasida talqin qilish tor yondashuvdir.

Tizimni takomillashtirish uchun asosiy jihatlar — loyihalarni bog'cha hayoti bilan uzviy bog'lash, baholashda aniq samaraga tayanish va rahbarlar uchun amaliy kuzatuv yo'nalishini kengaytirishdir. Bugungi vazifa islohotlarning mazmuni va amaliy ahamiyatini kuchaytirish, ulami hayotga chuqur tatbiq etishdan iborat. Chunki maktabgacha ta'lim tizimidagi sifat o'zgarishlari ta'lim muassasasi faoliyati bilan bir qatorda jamiyatning ertangi intellektual va ma'naviy qiyofasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

**Habib ABDIYEV,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti prorektori**



Mulohaza

MA'RIFAT BILAN YUKSALAYOTGAN YURT

Bugungi murakkab axborot asrida diniy noto'g'ri talqin etish, muqaddas tushunchalarni g'arazli maqsadlarga xizmat qildirish holatlari turli mintaqalarda uchrayotgani bor gap. Ayrim radikal kuchlar ijtimoiy tarmoqlar orqali jamiyatda qo'rquv, murosasizlik va adovat kayfiyatini shakllantirishga urinayotgan bir paytda mamlakatimizda din sohasida mutlaqo boshqacha — ma'rifati, bag'rikenglik va inson qadriga asoslangan yo'l tanlangan.

Muzaffarxon JONIYEV, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori



Ayniqsa, keyingi yillarda diniy-ma'rifiy sohada kechayotgan islohotlar xalqimizning azaliy qadriyatlarini va diniy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan bilan ahamiyatli. Bu islohotlarning eng muhim jihati shundaki, ular faqat ibodat erkinligini ta'minlash bilan cheklanib qolmayapti, balki xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash, buyuk allomalar merosini o'rganish, yoshlarni sog'lom e'tiqod va teran tafakkur ruhida tarbiyalash, shuningdek, radikalizm va islomofobiya qarshi ma'rifati bilan javob berishga qaratilayapti.

Yaqin o'tmishda ajdodlarimiz uchun oddiy diniy kitobni o'qish, ulug' ulamolarning merosini o'rganish, muqaddas haj safariga borish orzu bo'lib qolgan davrlar ham bo'lgan. Bugun esa minglab yurtodoshlarimiz davlatimiz g'amxo'rli va yaratilgan qulay sharoitlar asosida muborak ziyoratni ado etmoqda.

2026-yilgi haj mavsumi ham ana shu euzu islohotlarning amaliy davomi bo'ldi. Bu yil O'zbekiston uchun 15 mingta haj kvotasi ajratilgan. Bu raqam o'tinda minglab oilalar shodligi, nuroniy otaxon-onaxonlarning ko'z

aylanib borayotgani bejiz emas. Chunki xalq dardi bilan yashaydigan, inson manfaatini barcha islohotlar markaziga qo'yadigan jamiyatdagina mehr-oqibat, birdamlik va shukronalik muhiti mustahkam bo'ladi. Muqaddas safarga yuborilgan ushbu yurtodoshlarimiz nafaqat o'z orzularini ro'yobga chiqardilar, balki xalqimiz qalbida ezgulik, duo va minnatdorlik tuyg'ularini yanada kuchaytirdilar. Bu esa xalq bilan davlat o'rtasidagi mehr va ishonch rishtalari tobora mustahkamlanib borayotganining yana bir bor yaqqol ko'rsatadi.

Diniy-ma'rifiy islohotlarning yana bir ulkan ramzi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazidir. Bu markaz xalqimizning ming yillik

ishga tushirilib, unga tutash hududlarda mehmonxonalar, servis infratuzilmalari va ziyoratchilar uchun barcha sharoitlar yaratildi. Bu esa muqaddas qadamjolgara e'tibor faqat ma'naviy ehtirom emas, balki milliy taraqqiyotning muhim yo'nalishiga aylantirganini ko'rsatadi.

Bu kabi bunyodkorlik ishlari bir haqiqatni anglatadi: O'zbekistonda diniy merosga munosabat faqat o'tmishni eslash bilan cheklanmaydi. Aksincha, uni zamonaviy taraqqiyot, turizm, ta'lim, xalqaro muloqot va ma'naviy xavfsizlik bilan uyg'un holda rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari kabi ilm maskanlari xalqimizning boy ma'naviy merosini dunyoga tanitayotgan muhim makonlarga aylantirildi.

Bu jarayonlar davlatimiz rahbarining: "Tarix tilga kirgan, tarixdan saboq olingan joyda, albatta, bilim va ma'rifati, taraqqiyot va adolat bo'ladi. Hech qachon to'g'ri yo'ldan adashilmaydi!" degan fikrlari bilan hamohangdir. Chunki tarixiy xotira va ma'naviy merosga tayangan jamiyatgina turli yot g'oyalari va mafkuraviy tahdidlarga qarshi mustahkam immunitet hosil qila oladi.

Bugun ayrim tashqi axborot maydonlarida diniy tushunchalarni buzib talqin qilish, musulmonlarni bir-biriga qarshi qo'yish, mazhabiy adovat va takfirchilik kayfiyatini kuchaytirishga qaratilgan chiqishlar kuzatilmoqda. Ana shunday sharoitda O'zbekiston tanlagan yo'l mo'tadillik, hanafiy-moturidiy an'anasi, ilm va odobga tayanish yo'lidir. Chunki haqiqiy islom insonni qo'rquvga emas tafakkurga, adovatga emas mehr-oqibatga, jaholatga emas ma'rifatga chorlaydi. Ajdodlar merosini tiklash va uni zamonaviy taraqqiyot bilan bog'lashga qaratilgan islohotlar esa aynan shu euzu maqsadga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizdagi diniy-ma'rifiy islohotlarning tub mohiyati ham shunda. Bugun yurtimizda masjidlar, ziyoratgohlar, ilmiy markazlar, diniy ta'lim muassasalari faoliyati uchun munosib sharoitlar yaratilmoqda. Ajdodlarimiz asarlari nashr etilmoqda, xalqaro konferensiyalar o'tkazilmoqda, yosh tadqiqotchilar uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Bu jarayonlar xalqimizning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, yoshlarni turli yot g'oyalardan asrash va jamiyatda sog'lom diniy muhitni ta'minlashga yo'l ochyotiradi.

Shu ma'noda, 2026-yildagi haj mavsumi, "Prezident hojilari" tashabbusi, Islom sivilizatsiyasi markazi qurilishi va Imom Buxoriy majmuasining yangicha qiyofasi bir-biridan alohida voqealar emas. Ular yagona ma'naviy jarayonning — yangi O'zbekistonda inson qadri, e'tiqod erkinligi, ajdodlar merosi va ma'rifiy jamiyat g'oyasi uyg'unlashayotganidan dalolatdir.

Bugun biz o'tmishga nazar tashlasak, cheklovlar, ta'qiblar va armonlar davrini ko'ramiz. Bugungi kunga nazar tashlasak, ochiqlik, imkoniyat va shukronalik davrini ko'ramiz. Ertangi kunga nazar tashlasak, ajdodlar merosini jahon miqyosida tanita oladigan, ma'rifati bilan taraqqiy etadigan, diniy tinchlik va insonparvarlik manbai sifatida angliyatdigan avlodni ko'ramiz.

Shunday ekan, bugungi islohotlarning qadriga yetish, mazmunini xalqimizga to'g'ri yetkazish, yoshlarni buyuk allomalar merosi asosida tarbiyalash har birimiz uchun muhim vazifadur. Zero, shukr faqat tilda aytilgan so'z emas, balki yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish, ilgama intilish, jamiyatga naf keltirish va vatan ravnaqiga hissa qo'shishdir.



Tavakkal Qodirov tavalludining 100 yilligi

XALQ BERGAN UNYON: O'ZBEKISTON BULBULI

O'zbek milliy maqom san'ati ko'p asrlik tarixga ega. Unda xalqning ma'naviy dunyosi, urf-odatlari va qadriyatlari mujassam. So'nggi yillarda milliy san'atimizni rivojlantirish, san'atkorlarni qo'llab-quvvatlash va boy madaniy merosimizni yosh avlodga yetkazish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Madaniyatimiz rivojiga salmoqli hissa qo'shgan O'zbekiston xalq artisti Tavakkal Qodirov ijodi ham milliy san'atimiz xazinasidan munosib o'rin olgan ana shunday bebaho merosdir.



— Tavakkal Qodirov nomi va ijodi xalqimiz qalbidan chuqur o'rin egallagan, — deydi madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Bahodir Ahmedov. — Uning yuzdan ortiq qo'shiqlari milliy san'atimizning oltin fondini bezab turibdi. San'atkor tavalludining 100 yilligi UNESCO tomonidan 2026-2027-yillarda nishonlanadigan xalqaro yubileylar ro'yxatiga rasman kiritildi. Tashkilot Bosh konferensiyasining Samarqand shahrida bo'lib o'tgan 43-sessiyasida ushbu qarorning qabul qilinishi Tavakkal Qodirov ijodining xalqaro miqyosidagi nufuzini yana bir bor namoyon etadi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 1-apreldagi farmoyishi qabul qilinib, unga ko'ra san'atkor tavalludining 100 yilligi munosabati bilan ilmiy-amaliy seminar, xalqaro ko'rik-tanlov va madaniy tadbirlar o'tkazilishi belgilandi. Jumladan, mazkur sana munosabati bilan joriy yil 30-31-may kunlari Marg'ilon shahrida xalqaro ko'rik-tanlov va Farg'ona shahrida ilmiy-amaliy seminar tashkil etiladi.

Xalqaro tanlov ishtirokchilarining ijro dasturlarini O'zbekiston xalq artisti, taniqli bastakor Abdushohim Ismoilov boshchiligidagi hakamlar hay'ati baholab boradi. Shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyada o'zbek olimlari bilan bir qatorda Tojikiston, Qirg'iziston va boshqa xorijiy mamlakatlardan taniqli mutaxassislar qatnashish istagini bildirdi. Ushbu tanlov yosh iste'dod egalari kashf etish va ustoz san'atkor merosini kelajak avlodlarga yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xalqimizning sevimli san'atkori serqirra ijodi, xalqchil qo'shiqlari va betakror ijro uslubi bilan o'zidan katta maktab qoldirdi. Uning ijodida milliy ruh, insoniy tuyg'ular va vatanparvarlik g'oyalari alohida o'rin egallagan. Shu bois, Tavakkal Qodirov ijodini ilmiy jihatdan o'rganish bugun ham dolzarb.

Uyushligidan musiqa va qo'shiqchilikka qiziqib, iste'dodini rivojlantirish yo'lida mutazam izlandi. San'atkorning ijodiy faoliyati davomida yaratgan qo'shiqlari xalq orasida mashhur bo'lib, turli avlod vakillari tomonidan sevim tinglanadi va ijro etiladi. Tavakkal Qodirov ijodining muhim jihatlardan biri — milliylik va xalqchilik. Ijodida o'zbek xalqi mentaliteti, urf-

odatlari va ma'naviy qadriyatlarini yetakchi o'rin tutadi. Bu esa san'atkorning xalq orasida mashhur bo'lishiga sababchi omillarning asosiyidir.

Shuningdek, Tavakkal Qodirovning sahna madaniyati ham yuqori baholanadi. U sahna o'zini erkin tutishi, tinglovchilar bilan samimiy muloqot qilishi va milliy analarga mos kiyinish uslubi bilan ajralib turgan. Bu esa yosh san'atkorlar uchun ham muhim namunadir.



O'zbek qo'shiqchilik san'atining yorqin yulduzi, betakror ovoz sohibi, O'zbekiston xalq artisti Tavakkal Qodirov serqirra ijodi, o'ziga xos ijro uslubi va o'lmas qo'shiqlari bilan o'zbek madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan ulug' san'atkor.

San'atkor 1926-yil 24-aprelda Quva tumanida dunyoga kelgan. Yoshligidan oq san'atga mehr qo'yg'an. Ustoz hozirlardan saboq olib, o'z ustida tinimsiz ishlagan. Natijada o'zbek mumtoz qo'shiqchilik san'atining eng yorqin vakillaridan biriga aylangan. San'atkorning professional ta'limi Farg'ona musiqa bilim yurtida va keyinchalik Farg'ona pedagogika institutida kechdi. U muttasil shug'ullanish orqali Komiljon Otaniyozov, Jo'raxon Sulonov kabi ulug' ustozlardan o'zbek mumtoz va zamonaviy ashulalarni o'rgandi.

Tavakkal Qodirovning faoliyati ham bevosita san'at bilan bog'liq bo'lgan. Quva tumani madaniyat uyida badiiy

rahbar, Farg'ona teatrida, viloyatlararo filarmoniyada yakkaxon xonanda, Farg'ona davlat universitetida professor lavozimida faoliyat yuritgan. San'atkor ko'plab yosh iste'dod egalari ustozlik qilgan. O'zbek musiqa san'atini nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham munosib namoyish etgan. Fors, hind, arman, ozarbayjon, uyg'ur va arab tillarida qo'shiqlar ijro etib, san'atning millat tanlamas qudratini namoyon etgan.

— Ustozimiz lirik tenor ovoz sohibi edi. Uning ovozi betakror, shirali, jarangdor va tiniqli, nihoyatda keng va yuqori diapazoni bilan ajralib turardi, — deydi O'zbekiston xalq hofizi Ilhomjon Ibrohimov. — Tavakkal akaning ijro uslubi baland avjlarni keng ishlatishi, ravonlik, keng nafas va har bir so'zni dona-dona qilib aytishi bilan tavsiflanadi. Ustoz ijodining yana bir muhim jihati shundaki, u an'anaviy hofizlik san'atini zamonaviy ijro madaniyati bilan uyg'unlashtira oldi. Shu bois, qo'shiqlarini nafaqat katta avlod, balki yoshlar ham sevim tinglaydi. Biz kabi Tavakkal akaning etagini tutgan o'nlab, yuzlab shogirdlari ustoz analariga sodiq qolib kam bo'lmadik.

Darhaqiqat, Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida kuylangan "Qo'qon ushshog'i", "Toshkent irog'i", "Tanovar", "Nasrullo", "Xorazm yo'lida aytilgan "Suvora", "Feruz", "Segoh", zamonaviy bastakorlar hamda xonandaning o'zi yaratgan "To'ylar muborak", "Farg'ona tong otguncha", "Dog'man", "O'xshaydiku", "Shunchamidi" va boshqa ko'plab qo'shiqlarni tinglaganimizda ruhimiz yengil tindi, qalbimiz yuksalkarga parvoz qiladi.

Ulug' san'atkor 1996-yil 13-aprelda Farg'ona shahrida vafot etdi. Uning nomi va o'lmas qo'shiqlari xalqimiz qalbid

yashab kelmoqda. Tavakkal Qodirov xotirasini abadiylashtirish maqsadida Farg'ona shahridagi san'at kolleji hamda ko'chalardan biriga nomi berilgan. 2021-yilda davlatimiz rahbarining farmoni bilan Tavakkal Qodirov bir guruh marhum san'atkorlar qatorida "Fidorokona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.

Hayotida qancha umr ko'rish emas, qanday iz qoldirish muhim. Ba'zi insonlar o'z mehnati, iste'dodi va xalqiga muhabbati bilan asrlarga tatigulik meros qoldiradi. Tavakkal Qodirov ana shunday san'atkorlardan edi. U xalq orasida bejiz "O'zbekiston bulbuli" deya e'tirof etilmagan. Bugun ustoz hofizning o'lmas qo'shiqlari yangrayotgan ekan, ovozi hali uzog' yillar qalblarga iliqlik, ma'naviyat va ezuqlik ulashishda davom etadi.

Nodir MAHMUDOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



yoshiga qorishgan duolari, xalqimiz qalbidagi shukronalik mujassam.

Ayniqsa, 2026-yilda fidoyi, el-yurt koriga yaranan vatandoshlarimizning 100 nafari "Prezident hojisi" sifatida muborak safarga yuborilgan xalqimizga ko'rsatilayotgan yuksak ehtiromning yorqin namunasi bo'ldi. Bu tashabbusning ma'nosi juda chuqur. Zero, ulug' muhaddis Imom Termiziy bobomiz rivoyat qilgan hadisida: "Odamlarning eng yaxshisi — odamlarga eng ko'p manfaat yetkazadiganidir", deb marhamat qilingan. Jamiyat ravnaqiga hissa qo'shgan insonlarni qadrlash, ehtirom ko'rsatish va ezgulikni ulug'lash shu yuksak insoniy qadriyatlarining amaliy ifodasidir.

O'zbekistonda inson qadri ulug'lash, nuroniyalar va xalq xizmatida fidoyilik ko'rsatgan insonlarga ehtirom ko'rsatish euzu an'anaga

ilmiy-ma'naviy merosini dunyoga tanitish, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Hakim Termiziy, Bahouddin Naqshband kabi allomalar merosini zamonaviy asosda targ'ib etishga xizmat qiladi. Prezidentimiz 2025-yil oktabr oyida ushbu markazdagi ekspozitsiyalar orqali xalqimizning boy tarixiy va ma'naviy merosini keng namoyish etish ishlari bilan tanishgan edi. Bu markaz nafaqat muzey yoki ilmiy maskan, balki yangi O'zbekistonning ma'rifati asoslangan taraqqiyot falsafasini ifoda etuvchi ulkan g'oyaviy makondir.

Samarqanddagi yangilangan Imom Buxoriy majmuasi ham bugun yurtimizda ma'rifati va ziyorat madaniyati yangi bosqichga ko'tarilayotganini yaqqol namoyon etmoqda. 2026-yil mart oyida qurilishi yakunlangan majmua huzurida zamonaviy turizm markazi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-546. 30761 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov Musahhih: Akbar Qarshiyev Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV